

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

O‘ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI

**AMALIY TILSHUNOSLIK, O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI O‘QITISH
METODIKASI KAFEDRASI**

TANGIROVA SHAXNOZA

**MAVZU: FURQAT LIRIKASINING YUQORI SINFLARDA
O‘RGANILSHI**
(Bitiruv malakaviy ishi)

Ilmiy rahbar:

Prof.Maxmatmurodov Sh.

Malakaviy bitiruv ishi amaliy tilshunoslik, o‘zbek tili va adabiyoti o‘qitish metodikasi kafedrasining 2014 yil ____ maydagi majlisida muhokama qilingan va YaDAK himoyasiga tavsiya etilgan (Bayonnoma № ____).

Kafedra mudiri:

dots. Muhiddinova B.

Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning 2014 yil ____ iyundagi yig‘ilishida himoya qilingan va ____ foiz bilan baholangan (Bayonnoma ____).

YaDAK raisi:

A‘zolari:

Samarqand – 2014

MUNDARIJA

I. Kirish.....	4
II. Asosiy qism	
1.BOB. Furqat hayoti va ijodining o‘rganilishi.....	7
1.1. Furqat hayoti va faoliyatining maktab va akademik litsey darsliklarida o‘rganilishi.....	14
1.2. Adabiyotning tarixiy taraqqiyotida shoir ijodining o‘rni.....	19
1.3. Furqat hayoti va ijodi yuzasidan tuzilgan savol-topshiriqlar.....	28
2.BOB. Furqat lirikasining o‘rganilishi.....	35
1.1. Shoir lirikasining janr turlari.....	36
1.2. Shoir she’riyatining mavzusi, g‘oyaviy yo‘nalishi.....	43
1.3. Furqatning badiiy tasvirdagi mahorati.....	56
II. Xulosa.....	62
III. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	63

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekiston davlatining mustaqillik davridagi taraqqiyoti ijtimoiy-siyosiy hayotimizning barcha qirralarida bo‘lgani singari madaniy-ma’rifiy sohalarda ham tarixiy o‘zarishlarni yuzaga keltirmoqda. Istiqlol mafkurasi tufayli “Tilimizni, dinimizni, urf-odatimizni, ma’naviy qadriyatlarimizni butkul yuqotib qo‘yish xavfidan saqlab, asrab-avaylab, ularning azaliy mazmuni va qudratini tiklash...”¹ darajasiga erishdik. Qadimiy merosimiz ildizlarini ko‘rsatish, o‘tmishdagi boy an’analarni, milliy qadriyat va ma’naviy boyliklarimizni yangi jamiyat qurilishiga tadbiq etish bugungi hayotimizning bosh vazifalaridan biriga aylandi.

Vatanimiz mustaqilligi yillarida maktab hayotida tub o‘zgarishlar yuz berdi: maktab kommunistik tashviqot va targ‘ibot iskanjasidan qutulib, ijodiy fikrlovchi, muttasil rivojlanadigan mustaqil jamoa maqomini oldi; yoshlar ta’limi va tarbiyasi bilan mashg‘ul ijtimoiy institutlar son va sifat jihatdan o‘sdi, litsey, kollej, magistraturalar ko‘paydi; yangi ta’limning yangi konsepsiyalari yaratilib, dastur, darslik, o‘quv qo‘llanmalari ishlab chiqildi; davlat ta’lim standartlari qabul qilindi. Ta’lim jarayoniga, uni tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish amaliyotiga yangi g‘oyalar kirib keldi. Ana shunday ilg‘or qarashlardan biri adabiyot o‘qitish metodikasi muammolaridir. Barchamizga ma’lumki, adabiyot boshqa fanlarga nisbatan ikkita vazifani bajaradi: ta’limiy va didaktik vazifa. Bu vazifalarga erishish uchun turli metod va usullardan foydalanish mumkin. Chunki, o‘qituvchiga dars davomida adabiyot tariximizdagi yozuvchi va shoirlarning asarlarini o‘qitish muammo tug‘diradi. Shu sababli, mazkur bitiruv malakaviy ishimizda shoir va adib, adabiyotshunos va muarrix, elshunos va mutarjim Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat hayoti va ijodining maktab va akademik litseylarda o‘rganish usullari haqida fikr yuritmoqchimiz.

¹ Каримов И.А. Истиклол ва маънавият. – Т.: Ўзбекистон.1993-йил, 71-бет.

Mavzuning o‘rganilish darajasi: Furqat hayoti va ijodi bo‘yicha o‘zbek adabiyotshunosligida ancha samarali ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, Homid Rasul, G‘.Karimov, N.Hotamov, B.Qosimovlarning nomini alohida ta’kidlab o‘tish lozim. Adabiyot metodikasida ham Furqat hayoti va ijodini maktab darsliklarida o‘qitilishi yuzasidan turli xil maqolalar chop etilgan va etilmoqda.

Bitiruv malakaviy ish maqsadi. Umumta’lim maktablari va akademik litsey darsliklarida Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat hayoti va ijodining o‘rganish usullari, bu boradagi turli pedagogik texnologiyalar.

Bitiruv malakaviy ish vazifalari:

- Furqat hayoti va faoliyatining o‘rganilishi;
- Adabiyotning tarixiy taraqqiyotida shoir ijodining o‘rnini aniqlash;
- Furqat hayoti va ijodi yuzasidan tuzilgan savol-javoblar ustida ishlash;
- Shoir lirikasining janr turlari va uni o‘qitish metodikasi;
- Shoir she’riyatining mavzusi, g‘oyaviy yo‘nalishi;
- Furqatning badiiy tasvirdagi mahoratini ochib berish.

Ishning yangiligi: Furat hayoti va ijodi o‘zbek adabiyoti va metodika sohalarida o‘rganilgan bo‘lsa-da, lirikasining ahamiyati va yosh-avlodni tarbiyalashdagi roli tadqiqot darajasida o‘rganilmagan edi. Biz o‘z bitiruv malakaviy ishimizda mana shu jihatga e’tibor qaratdik.

Tadqiqot obyekti va predmeti. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning ma’naviy-ma’rifiy g‘oyalari, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, Davlat ta’lim standartlari hamda Furqat hayoti, ijodi yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqotlar, adabiyotshunos olimlarning qarashlari ishning metodologik asosini tashkil etdi.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy-amaliy ahamiyati: ishni amalga oshirish jarayonida umumta’lim maktab va akademik litsey darsliklarida o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatini izchil shakllantirishga yo‘naltirilgan nazariy yondashuvlar bilan boyitildi. Shuningdek, Furqat hayoti va ijodini o‘rganish bo‘yicha tegishli

ko'rsatmalar, tavsiyalar beriladi. Bitiruv malakaviy ishdan maktab va litseylarda Furqat hayoti va faoliyatini o'qitishda metodik qo'llanma sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqot metodlari. Obyektiv kuzatgan holda, biografik, struktural va qiyosiy-tarixiy metodlardan foydalanildi.

Ilmiy ishning ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Ushbu ilmiy bitiruv ishining mavzusi SamDU o'zbek filologiya fakulteti, amaliy tilshunoslik, o'zbek tili adabiyoti o'qitish metodikasi kafedrasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liq bo'lib, kafedraning umumiy mavzusidan kelib chiqqan holda tanlangan.

Bitiruv malakaviy ish tuzilishi: kirish, 2 bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan.

1.BOB. FURQAT HAYOTI VA IJODINING O‘RGANILISHI

Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat - milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri. U shoir va adib, adabiyotshunos va muarrix, elshunos va mutarjim² sifatida o‘zidan boy ma’naviy meros qoldirdi. Faqat bugina emas. U birinchi o‘zbek jurnalisti ham edi. “Turkiston viloyatining gazetasi” sahifalarida chop etilgan adabiy va siyosiy-publitsistik maqolalari ko‘p jihatdan bugun ham o‘z dolzarbligini yo‘qotgan emas. Shuningdek, Furqat zamonasining mashhur xattotlaridan edi. Uning bu borada ko‘plab shogirdlar yetishtirganligi manbalarda qayd etilgan. Tabib sifatida shuhrati yanada yuksak bo‘lganligi ma’lum. “Zubdatul-hukamo” unvonining sohibi bo‘lganligiyoq uning bu boradagi kamoloti nechog‘lik ekanligiga dalil. U sayyoh sifatida Turkiya, Bolgariya, Yunoniston, arab mamlakatlari, shuningdek, Hindiston va Xitoyda bo‘ldi. Safar taassurotlari, o‘sha davr kishilarining ma’naviy olami, turli davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlarni yozib qoldirdi. Bir so‘z bilan aytganda, Furqat qomusiy olim va ijodkor sifatida milliy ma’naviyatimiz rivojiga ulkan hissa qo‘shdi.

Furqat asarlarning chop etilishi va ommalashtirilishida filologiya fanlari doktori Xolid Rasulning xizmatlari katta bo‘ldi. U Furqat “Tanlangan asarlari” ni jami yetti marta³ (1940-, 1951-, 1958-, 1959-, 1975-, 1980-, 1990-yillarda) nashr ettirdi. Bular ichida, Furqat “Asarlar majmuasi” ning turli manbalar asosida tayyorlanib, arab yozuvida chop etilgan ikki jildlik faksimile nashri, ayniqsa, alohida ahamiyatga ega. Mazkur nashr shoirning shu paytgacha e’lon qilingan “Tanlangan asarlar” iga nisbatan ancha mukammal ekanligi bilan ajralib turadi. Shunga qaramay, shoir asarlarini qo‘lyozma manbalari bilan qiyoslash natijalari bu to‘plamning ham ayrim kamchiliklardan xoli emasligini ko‘rsatmoqda. Jumladan,

² Бегали Қосимов, Шариф .Юсупов, Улуғбек Долимов, Шухрат Ризаев,Суннат Аҳмедов. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Т.: Маънавият, 2004. 71-бет

³ O‘sha kitob, 72-bet

to'plamga shoirning ba'zi e'tiborli asarlari kirmay qolganligi, kirganlarining ham ayrimlari matn jihatidan nuqsonli ekanligi ushbu fikrni quvvatlaydi. Professor G'.Karimov va adabiyotshunos N.Hotamovlar ham shoir asarlarini bir necha marta (1959-, 1973-yillarda) chop ettirdilar. Bundan tashqari, Furqat "Tanlangan asarlar"i rus (1958-, 1962-, 1972-yillarda), xitoy (1989) va uyg'ur (1989) tillarida ham qayta-qayta nashr qilingan.

Shoir asarlarini o'rganish uning hayot paytidanoq boshlangan. "Turkiston viloyatining gazetasi" o'zining o'n uch sonida shoir tarjimai holini e'lon qilganligi ham buni tasdiqlaydi. Furqat xorijda ekan, 1896-yili rus missioneri N.P.Ostroumovning "Sart" asarida uning "Toshkent shahrida bo'lgan nag'ma bazmi xususida", "Bal xususida" manzumalari hamda "Ahvolot" asari rus tiliga so'zma-so'z tarjimasi bilan bosilib chiqadi. 1894-yili Sankt-Peterburgda Rusiya Arxeologiya jamiyati Sharq bo'limi Axboroti VIII jildida Furqatning "Muxammas Muhammad Xudoyorxon tilidan" asari to'la holda ruscha tarjimasi va izohlar bilan e'lon qilinadi. Mazkur "Axborot"ning 1909-yilgi 12-sonida shoirning "Sabog'a xitob" asarining dastxat nusxasi haqida A.N.Samoylovich axboroti, she'riy maktubning boshlanishi va oxiri, unga muallif tomonidan yozilgan kirish so'z va so'ngso'z chop etiladi. Jadidlar shoir hayoti va ijodiga alohida qiziqish bilan qaraganlar. Ismoilbek Gasprali tomonidan nashr etilgan "Tarjimon" gazetasining 1896-yil 18-avgust 32-sonida bu paytda xorijda yashayotgan shoir Furqat va uning jurnalistik faoliyati to'g'risida xabar-maqola e'lon qilingan. Xabar-maqola Furqat va jadidchilik masalalarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. XX asr boshida Orenburgda nashr etilgan "Sho'ro" jurnali va uning Turkiston jadidchilik harakatida tutgan mavqeyi mutaxassislariga ayon. Mazkur jurnalning 1909-yil 1-sonidayoq Furqatning "Muxammas Muhammad Xudoyorxon tilidan" asari to'la holda e'lon qilinishi shoir ijodiyotiga jadidlarning katta qiziqish bilan qaraganligini ko'rsatuvchi yana bir muhim dalildir. Lekin Furqat ijodiyotiga munosabat har doim ham bir xil kechdi, hamisha u yaxshi so'zlar bilan e'tirof etildi, deyish qiyin.

Ziyo Said “O‘zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar” nomli tadqiqotida “qora davr” haqida to‘xtaladi, “Turkiston viloyatining gazetasi”... yozishuvchilari boshda gubernatur idorasida xizmat qilg‘uvchi eski mirzalar” bo‘lganligini ta’kidlab, “keyinroq shoir Furqatning uzundan-uzun she‘rlari ko‘rina boshlagan”idan yozg‘iradiki, bu sho‘ro siyosatining talabi edi. Miyon Buzruk Solihovning 1935-yili nashr etilgan “O‘zbek teatr tarixi uchun materiallar” asarida ham shoir merosiga nisbatan xuddi shunday munosabat kuzatiladi. U ushbu kitobida “... rus teatrusining yerlilar orasida havas va qiziqish tug‘dirgani” to‘g‘risida yozib, Toshkentda “Suvorov” nomli pyesa tomoshaga qo‘yilgani va “... tamoshochilar orasida mashhur shoir Furqat ham bo‘lgan” ligini ta’kidlaydi. Suvorov haqidagi manzumaning 44 baytini keltirib, “Furqatda teatr-u hayotiga havas va berilish ochiq sezilib turishi” ni qayd etadi. Uning “yurt kattalari” — burjuaziya elementlarining zavqlariga ko‘ra she‘rlar yozish bilan tanilgan va ularning yordamlari bilan kun ko‘rib yurgan shoir” bo‘lganligidan sho‘ro o‘quvchilarini “ogohlantiradi”. Shunga qaramay mazkur tadqiqotda ba’zi muhim fikrlar ham mavjud. Jumladan, unda Furqatning o‘z she‘rlarini yig‘ib, devon tuzganligi haqida ma’lumot berilgan. 1954-yili Xolid Rasulning “Zokirjon Furqat ijodi”, “Furqat — ma’rifatparvar, demokrat shoir” nomli kitoblari nashr etildi. Ular shoir ijodini monografik o‘rganishning dastlabki namunalari edi. Olim 1959-yili bu mavzuga yana qo‘l urdi. Uning “Furqat” tanqidiy-biografik ocherki e’lon qilindi. Shu yili H.Vohidovning “Furqat – ma’rifatparvar shoir” risolasi bosilib chiqdi. Furqatning 100 yilligi munosabati bilan nashr etilgan “Furqat va Muqimiy haqida maqolalar” (1958) hamda “Zokirjon Furqat” (1959) nomli ikki maqolalar to‘plami shoir hayoti va ijodini o‘rganishda alohida o‘rin tutadi. Har ikki to‘plamdagi materiallar Furqat ijodining hali tadqiqotchilar e’tibori yetarli qaratilmagan jihatlariga bag‘ishlanganligi, ko‘p hollarda muhim masalalar o‘rtaga qo‘yilib, puxta hal etilganligi, muhim ilmiy-nazariy xulosalar chiqarilganligi bilan e’tiborga molik. G‘. Karimovning 1960-yili “Sharq yulduzi” jurnalida e’lon qilingan “Furqat hayoti

va ijodiga doir ba'zi materiallar" maqolasida o'sha paytda Qozog'iston Markaziy Davlat arxivida saqlangan, keyinchalik Toshkentga, O'zbekiston Markaziy Davlat arxiviga ko'chirilgan muhim manba — N. P. Ostroumov shaxsiy fondidan aniqlangan Furqatning xorijdan yo'llagan 18 dastxat maktubi, 4 ilmiy-etnografik asari haqida ma'lumot beriladi. Ularni o'rganishning shoir hayoti va ijodini tadqiq etishdagi ahamiyati to'g'risida ilmiy xulosalar chiqariladi. G'.Karimovning mazkur tadqiqoti, ayniqsa, shoirning chet ellardagi hayoti hamda qizg'in ijodiy faoliyatini o'rganishda yangi sahifa ochdi. E. Karimovning rus tilidagi "O'zbek adabiyotida realizmning rivojlanishi" (1975), "O'zbek demokratik adabiyoti realizmi" (1986) nomli tadqiqotlarida ham Furqat ijodiga oid e'tiborli mulohazalar bayon qilindi. Tadqiqotda ayrim munozarali jihatlar ham mavjud ediki, ular o'z vaqtida mutaxassislar tomonidan qo'rsatib o'tilgan. A.Abdug'afurovning "Zokirjon Furqat" (1977) kitobi shoir hayoti va ijodi tadqiqiga bag'ishlangan birinchi yirik monografiya. Unda shoir hayoti va ijodi furqatshunoslikning o'sha Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti davrdagi mavjud yutuqlarini mujassamlashtirgan holda ancha mufassal tadqiq etildi. A.Qayumovning "Shoir Furqat" ("Sharq yulduzi", 1986, 4-5, 1989, 5-6-sonlar) asari shoir merosini ommalashtirish jihatidan alohida ahamiyatga ega bo'ldi, deyish mumkin. Asarda shoirning bir qancha asarlari birinchi marta ilmiy istifodaga olib kirildi. Ayrimlari yangicha talqin etildi. 1984-yili Sh.Yusupovning "Furqat yo'llarida" monografiyasi e'lon qilindi. Monografiyada Furqatning chet elga ketish va qolib ketish sabablari, shoirning vatandan judolikda kechgan og'ir hayoti to'g'risida arxiv hujjatlari hamda ishonchli manbalar asosida e'tiborli mulohazalar bayon qilindi. Tadqiqotning yana bir diqqatga sazovor jihati shundaki, olim mazkur masalalar yuzasidan ilgari ilmiy ishlarda bildirilgan fikrlar bilan munozaraga kirishadi va o'z qarashlariga ishonarli dalillar keltiradi. Shoirga nisbat berib kelingan bir qancha she'rlarning, jumladan, Sharifxo'ja qozi va Sayidazim boyni tanqid qilgan deb kelingan hajviyalarning unga mutlaqo aloqasiz ekanligini rad

etib bo'lmaydigan dalillar bilan isbot etadi. Shoirning chor hukumati yuqori doiralarini madh etgan deb qaralgan asarlarini yangicha talqin qilib, ularning zohiriga emas, tag matniga e'tibor qaratish zarurligi haqidagi muhim ilmiy xulosani o'rta tashlaydi. Olim 1990-yili "Furqat va o'zbek ma'rifatparvarlik adabiyotining yangi bosqichi" mavzida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Dissertatsiyada mazkur mulohazalarini yanada yangi dalillar, umumlashma ilmiy xulosalar bilan boyitdi. Arxiv hujjatlari va ishonchli manbalarga tayanish, ilmiy xulosalarning tamomila yangi ekanligi, yangicha talqin va dalillar - Sh. Yusupov tadqiqotlarining yutug'ini ta'minlagan muhim omillar shulardan iborat. Sho'ro davrida yaratilgan bir qancha ijtimoiy-falsafiy yo'nalishdagi tadqiqotlarda ham Furqat hayoti va faoliyati, falsafiy qarashlari haqida qimmatli ilmiy mulohazalar bildirildi. I.Mo'minovning "O'zbekiston ijtimoiy-falsafiy tafakkuri tarixidan" (1960), H.Vohidovning rus tilida chop etilgan "Turkistonda ma'rifatparvarlik g'oyasi" (1979) asarlari, V.Zohidov, M.Xayrullayevlarning tadqiqiy maqolalari shular jumlasidandir. Shuningdek, universitetlar va pedagogika institutlari filologiya fakultetlari uchun "O'zbek adabiyoti tarixi" darsligi va O'zbekiston FA Til va adabiyot instituti olimlari tomonidan tayyorlangan "O'zbek adabiyoti tarixi" (1980) ko'p jildligining V jildida shoir hayoti va ijodi furqatshunoslikning o'sha paytdagi eng so'nggi yutuqlari asosida tadqiq etildi. Istiqlolgacha bo'lgan davrda mazkur doktorlik dissertatsiyasidan tashqari, Furqat hayoti va ijodiy faoliyatiga bag'ishlangan uch nomzodlik dissertatsiyasi himoya qilindi. Ko'rinib turibdiki, ijtimoiy tuzum qanday bo'lishidan qati nazar, Furqat hayoti va ijodini ilmiy o'rganish, ommalashtirish borasida muayyan yutuqlar qo'lga kiritildi. Lekin sho'ro davridagi tadqiqotlarning qariyb barchasi uchun umumiy bo'lgan, yaqqol ko'zga tashlanib turadigan va asl mohiyatga ko'pda muvofiq kelavermaydigan bir xususiyat: deyarli har bir she'r, har bir asar talqinida kommunistik mafkura talablari asosidagi yondashuvning, shoirni o'zi yashab turgan tuzumdan norozi, jabrdiyda qilib qo'rsatishga, uni sun'iy ravishda dinga, dindorlarga qarshi

qo'yishga urinishning ochiq sezilib turishidir. Milliy istiqlol tufayli milliy adabiyotshunosligimizning tarkibiy qismi bo'lgan furqatshunoslik ham mafkuraviy tazyiqlar ta'siridan xalos bo'ldi. Natijada, shoir hayoti va ijodiy faoliyatini o'rganishda salmoqli yutuqlar qo'lga kiritildi. Bu yutuqlarning asosiy qismini sho'rolar zamonida bajarilishi mumkin bo'lmagan ishlar tashkil etishi, kommunistik mafkura tomonidan man etilgan mavzularning tadqiq qilinganligi hisobga olinsa, ularning ahamiyati yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi. Mustaqillik davri furqatshunosligida haqqoniy yoritilgan mavzulardan biri Furqatning Rusiya istibdodiga munosabati masalasi bo'ldi. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar shoirning mustamlaka siyosatiga murosasiz munosabatda bo'lganligini, bu siyosatning asl maqsad-muddaosini, fojiaiy oqibatlarini o'z asarlari vositasida ayovsiz fosh etganligini isbotladi. Milliy istiqlol davri furqatshunosligida shoir ijodining mutlaqo o'rganilmay kelgan yangi qirrasi - diniy-ma'rifiy va so'fiyona mavzudagi asarlarini e'lon qilish, ommalashtirish va tadqiq etish borasida ham e'tiborga molik ilmiy izlanishlar (A.Madaminov, N.Jabborov, I.Haqqulov ishlari) amalga oshirildi. Natijada, Furqat ijodida diniy-tasavvufiy mavzu sho'ro zamonidagi ayrim tadqiqotlarda ta'kidlanganidek o'tkinchi, "... uning uchun tipik bo'lmagan kayfiyatlarni aks ettiruvchi" emas, aksincha, asosiy yo'nalishlardan ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi. Sho'rolar zamonida boshqa shoirlar kabi Furqat asarlarini nashr etishda ham kommunistik mafkura talablaridan kelib chiqildi. Uning aksariyat asarlari nojoiz qisqartirishlar bilan uzuq-yuluq hodda chop etildi. Mavjud nashrlarni qo'lyozma manbalar bilan qiyoslash natijalari ularning bugungi talablar darajasida emasligini ko'rsatmoqda. Faqat milliy istiqlol sharofati bilangina bu haqda ochiqcha fikr yuritish, bu asarlarni to'la e'lon qilish, ommalashtirish imkoniyatlari paydo bo'ldi. Natijada shoirning shu paytgacha ma'lum bo'lmagan juda ko'p asarlari, ularning dastxat nusxalari aniqlandi va bu haqda tadqiqotlar e'lon qilindi.

Xorijlik tadqiqotchilar ham Furqat shaxsi va adabiy merosiga qiziqish bilan qaragan. Sharq va G'arbda, yaqin va olis xorijiy mamlakatlarda Furqat hayoti va ijodiga oid tadqiqotlar yaratilgan. Amerikada Kolumbiya universiteti professori E.Ollvort, Turkiyada boshqird olimi, jadidchilik harakati yetakchilaridan Ahmad Zaki Validiy, Majoristonda Y.Ekkman, Sharqiy Turkistonda Ne'matullo Ubaydullo hoji, Qodir Akbar, Arshildin Totliq kabi olimlar shoir hayoti va ijodini tadqiq etish borasida diqqatga sazovor ishlarni amalga oshirdilar. Milliy istiqlolga erishilganidan keyin o'tgan davr davomida zikr etilgan tadqiqotlardan tashqari, Sh.Yusupovning "O'zbek ma'rifatparvarlik adabiyoti va Furqat" nomli uslubiy qo'llanmasi nashr etildi. N.Jabborovning "Furqat asarlarining qo'lyozma manbalari" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi himoya qilindi. Shoirning vaqtli matbuotda ishtiroki masalalariga bag'ishlangan tadqiqot yuzaga keldi. Sh.Rizaevning "Jadid dramasi" asarida Furqat birinchi o'zbek teatr tanqidchisi – san'atshunos sifatida talqin etildi. Ushbu dalillarning o'ziyoq Furqat hayoti va ijodini tadqiq etish milliy istiqloldan keyin tamomila yangi bosqichga ko'tarilganligini, uni yanada rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar paydo bo'lganligini ko'rsatadi.

1.1. FURQAT HAYOTI VA FAOLIYATINING MAKTAB VA AKADEMIK LITSEY DARSlikLARIDA O'RGANILISHI.

“...Buyuk davlat, buyuk kelajagimizga erishish uchun oqil, ma’rifatli, ayni paytda o’zining o’tmishi, ulug’ qadriyatlari, millati bilan faxrlanadigan va kelajakka ishonadigan insonlarni tarbiyalashimiz kerak”⁴ligini har bir murabbiy chin yurakdan his qilmog’i lozim. Buni o’quvchi-yoshlarga tez va oson yetib borishini ta’minlashda esa, bizga adabiyot fani yordamga keladi. Chunki, adabiyotning bosh vazifasi ham tarbiyalashdir. O’z shaxsiyati va asarlari bilan insonlarga ibrat bo’la oladigan, ularga ma’rifat nuri ulashadigan buyuk siymolarning hayoti va faoliyatini o’rganishimizning ham asl mohiyati shunda.

“Yozuvchining hayoti va ijodiy faoliyatini o’rganish uning dunyoqarashini aniqlashga yordam beradi. Bu esa unga to’g’ri baho berish uchun zamin hozirlaydi”⁵. Ba’zan yozuvchi va shoirlarning hayotini o’rganish shart emas, degan qarashlarga ham duch kelamiz. Holbuki, adib-u shoirlar hayotiga oid faktlarni to’plash ilmning chinakam “qora ishi” sifatida baholanishi kerak. Sababi, bu xil ishlar konkret ijodkorning shaxs va san’atkor sifatidagi tadrijini kuzatish yoki konkret asarning ijodiy tarixini to’g’ri talqin qilish uchungina emas, ijod psixologiyasi, ijodkor va jamiyat munosabati kabi qator umumestetik muammolarni yoritishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Adib hayotiga oid ma’lumotlar o’zi yozib qoldirgan tarjimayi hollardan, adib haqida aytilgan zamondoshlar, uning tengdoshlari, ustozlari yoki shogirdlari, tanish-bilishlari va muxlislari tomonidan aytilgan yoki yozma holida yetib kelgan manbalardan olinishi mumkin.

Umumta’lim maktablarining 9-sinf o’quvchilari va o’rta maxsus ta’limning 2-kurs talabalari uchun mo’ljallangan darsliklarda Zokirjon Xolmuhammad o’g’li Furqatning hayot yo’li, ijodiy merosi atroflicha bayon qilingan. Bunda

⁴ Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси. – Т.: Узбекистон миллий энциклопедияси. 1999, 55-бет.

⁵ Долимов С., Убайдуллаев Х., Ахмедов Қ. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1967-йил, 239-бет.

o'quvchilarning yosh xususiyatlari e'tiborga olingan holda, darsliklardagi ma'lumotlar izchillik bilan soddalikdan murakkablikka, mavhumlikdan aniqlikka tomon siljib boradi. Bu xususiyatni ravshanroq ko'rsatib berish uchun darsliklarga murojaat qilamiz. Darsliklarga shoirning hayot yo'li haqida eng muhim bosqichlar kiritilgan. 9-sinf adabiyot darsligida shoirning hayoti va ijodiga 3 soat vaqt ajratilgan bo'lib, shuning 1 soati Furqat hayot yo'li haqida:

Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat o'zining lirik she'riyati bilan adabiyotimiz xazinasini boyitgan, ma'rifatchilik adabiyotining darg'alaridan biri bo'lgan hamda o'zbek publitsistikasiga tamal toshlarini qo'ygan zabardast ijodkordir. Shoir 1859-yilda Qo'qonda savdogar oilasida tug'ilgan. Otasi mulla Xolmuhammad she'riyatga oshno, badiiy ijodga moyil kishi edi. Bo'lajak shoir dastlabki ta'limni mahallasidagi maktabda oladi. Bir yilga yetmay "Haftiyak" va "Chor kitob"ni o'qib tugatadi. Sakkiz yoshida Fariddin Attorning "Mantiq ut-tayr" dostonini yod oladi, o'z ta'biri bilan aytganda "... olti oy bolupar urub, qushlar hikoyatini xotima oshyonasig'a qo'nduradi". Sal o'tib Navoiy mutolaasiga tutinadi: "Chun umrim shohidi to'qquz parda orqasidin chehra ko'rguzdi, Amir Alisherning turkiy devonlarikim, Navoiy laqabdur, zabonim qushi ul xirmandin donachin o'ldi"⁶ - deb yozadi u. Kichik yoshidan qalam tutib, she'r mashq qila boshlaydi. Keyinchalik o'zining eslashicha, husnixat ta'limini bolaligidanoq puxta egallagan Zokirjon quyidagi baytni to'qqiz yoshida yozgan ekan:

"Mening maktab aro buldur murodim,

Xatimdek chiqsa imlo-yu savodim".

Favqulotda iste'dod egasi, tabiatan tirishqoq va izlanuvchan Zokirjon o'n to'rt yoshida madrasa talabasi bo'ladi. Ruslar istilosi tufayli Qo'qon xonligi tugatilib, madrasal yopiladi. O'qishi nihoyasiga yetmay qolgan bo'lajak shoir 1879-yilda Yangi Marg'ilon (hozirgi Farg'ona)ga do'kondor tog'asi huzuriga

⁶ Бегали Қосимов, Шариф .Юсупов, Улуғбек Долимов, Шухрат Ризаев, Суннат Аҳмедов. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Т.: Маънавият, 2004. 75-бет.

boradi. Uning qo‘lida bir muddat ishlab, so‘ng o‘zining mustaqil do‘konini ochadi. Shu bilan birga shaxsiy muallimdan dars olib, bilimni takonilga yetkazadi va tez orada o‘zi ham boshqalarga dars bera boshlaydi. Husnixat sohibi bo‘lganligi uchun mirzalik, xattotlik ham qiladi. Lekin eng sevimli mashg‘uloti badiiy ijod edi. Mutaxassislar fikricha, Yangi Marg‘ilonda ekanligidayoq yozgan she‘rlarida u “Furqat” taxallusini qo‘ygan.

1880-yilda otasining qistovi bilan Qo‘qonga qaytadi va butun iste’dodi, bor kuchini ijodga yo‘naltiradi. She‘rlari adabiyot ixlosmandlari orasida shuhrat qozonadi. Muqimiydek zabardast shoir uning g‘azallariga muxammas bog‘lagani Furqatning ijod ahli orasida ham e’tirof topganligidan darak beradi. Furqat shu davrda “Hammomi xayol” nomli risola yozadi, “Chor darvesh”, “Nuh manzar” asarlarini fors tilidan o‘zbek tiliga o‘giradi. She‘rlarini to‘plab devon tuzadi. Furqat kabi ijodining dastlabki davrida – 21-22 yoshida devon tartib bergan shoir o‘zbek adabiyotida juda kam uchraydi.

Furqat 1890-1891-yillarda Toshkentda yashaydi. Bu yerda u Toshkent erlar gimnaziyasi direktori, “Turkiston viloyatining gazetasi” muharriri Nikolay Ostoumov bilan tanishadi. Bu tanishuvdan so‘ng Furqat shu gazetaga tarjimon bo‘lib ishga kiradi va shundan uning jurnalistlik, publitsistik faoliyati ham boshlandi.

1891-yilning sentabrida Furqat Samarqandga yo‘l oladi. Xat orqali tanishgan do‘sti tarjimon va etnograf olim Mirzo Buxoriy huzurida bo‘ladi. Iyul oyida Buxoroga borib, Kogondan poyezdga o‘tirib, Marv, Ashxobod, Boku, Botum orqali Istanbulga keladi. Bu yerda bir muddat yashagan shoir butun vujudi bilan ijodga berilgandi. 1892-yilda Iskandariya, Misr, Shom, Makka va Madina bo‘ylab sayohatda bo‘lgan Furqat sentabr oyida Hindistonning Bombay shahrida edi. 1893-yilning bahorida Kashmir, Tibet va Xo‘tan orqali Yorkentga keladi va umrining oxirigacha shu yerda yashab qoladi.

Furqat Qashqardagi Rusiya musulmon idorasida kotib bo‘lib ishlaydi. Ilmi nujum, tabobat bilan shug‘ullanadi. Ra‘no ismli ayolga uylanib, farzandlar ko‘radi. Shoir 1906-yilgacha Turkiston bilan, “Turkiston viloyatining gazetisi” bilan aloqani uzmaydi. Furqat 1909-yilning kuzida vatandan yiroqda vafot etadi.

Furqatning merosiga nazar tashlasak, adibning serqirra ijod sohibi ekanligiga amin bo‘lamiz. Uning ijodi quyidagi asarlarni o‘z ichiga oladi: 1) lirikasi; 2) publitsistikasi; 3) tarjimalari; 4) ilmiy asarlari.

Furqat tarjimon sifatida Sharq adabiyotining mashhur namunalari bo‘lmish “Hammomi xayol”, “Chor darvesh”, “Nuh manzar” asarlarini tarjima qilgan. Ammo ular bizgacha yetib kelmagan.

Adibning turli yillarda “Turkiston viloyati gazetisi” ga yozgan qator xabarlar, maqolalari uning publitsistikasini tashkil etadi. 1891- yili “Turkiston viloyatining gazetisi”da bosilgan “Xo‘qandlik shoir Zokirjon Furqatning ahvoli. O‘zi yozg‘oni” deb nomlagan tarjimayi holi uni bizga jurnalist va nosir sifatida tanitadi. Adabiyotshunoslikda bu esdaliklar shartli ravishda “Furqatnoma”, ba‘zan “Sarguzashtnoma” nomlari bilan yuritiladi. Mazkur asar shoir hayot yo‘li, dunyoqarashini aniqlash borasida katta ahamiyatga ega.

Furqat ijodiy me‘rosida to‘rt ilmiy asar uchraydi. Ularning uchasi etnografik xarakterda bo‘lib, “To‘y tavsifi”, “Gap ta‘rifida”, “Aza tavsifi” deb nomlanadi. To‘rtinchisi “Ilmi ash‘orning qoidai avzoni” (She‘r ilmining o‘lchov qoidalari) atalib, adabiyot havaskorlari uchun qo‘llanma sifatida tuzilgan, unda aruz vaznining qoidalari bayon etilgan.⁷

Akademik litsey darsligida shoir hayoti va faoliyati yuzasidan quyidagi ma‘lumot keltirilgan:

⁷ Q.Yo‘ldoshev, V.Qodirov, J.Yo‘ldoshbekov. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. – T.: Yangiyo‘l polygraph service, 2010. 111-112-betlar

Zokirjon Mullo Xolmuhammad o'g'li Furqat Qo'qon sharida tavallud topgan. Mahallasidagi maktabda dastlanki savodni chiqarib, so'ng madarasada o'qiydi. Xattotlik va arab tili bo'yicha yaxshigina bilim oladi.

Tog'asi bilan birgalikda savdo ishlari bilan shug'ullangan. Fuqarolarning iltimos va arzlarini qog'ozga tushirishga ko'maklashgan. U Muqimiy, Muhyi, Zavqiy, Nodim, Nisbat, Muhayyir kabi adiblar bilan bir adabiy davrada ijod qiladi.

Furqat she'riyati lirik kechinmalarning nozik tasvirlarga boyligi, hissiyotlarning o'tkirligi, ifodalarning yangi va samimiyligi bilan ajralib turadi. Ularda tabiat manzaralari, inson qalbining nozik kechinmalarijuda go'zal va takrorlanmas tarzda aks etgan. Adibning "Hammomi xayol" risolasi, forschadan tarjima qilingan "Chor darvesh" tarjimasi, "Nuh manzar" degan kitoblari yaratilgan.

Toshkentga borib, ilm-fan va texnika, shuningdek, san'atdagi yangiliklarni ko'radi. Bular haqida bir qator asarlar bitadi. Furqat o'zbek publitsistikasining ham asoschilaridan biridir.

Furqatning go'zal she'riyati insoniy tuyg'ularning yorqin ifodasi hamda hassos qalblardagi nozik kechinmalar bilan uyg'un kelishi tufayli har doim sevib o'qiladi⁸.

Ayrim adiblarning tarjimai holini o'rganishda boshqa kishilar, mashhur shaxslar, yirik olimlar, buyuk davlat va jamoat arboblarning, xususan, muallifning fikrlaridan foydalanish ta'limda yaxshi samara beradi. Shu sababli Furqat hayoti haqida so'z yuritganda bunday mulohazalardan foydalanmoq lozim. Ammo taassufki, biz o'rganayotgan siymo haqida maktab darsliklarida ham, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari darsliklarida ham birorta shaxsning mulohazasi keltirilmaydi, balki umumiy ma'lumot beriladi, xolos. Agar shoir ijodi va shaxsiyati to'g'risidagi ba'zi qarashlar o'quvchilar hukmiga havola etilsa

⁸ To'xliyev B., Mirsamiqova R., Ametova O. Adabiyot (Majmua. Akademik litseylarning ikkinchi bosqich o'quvchilari uchun). – T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010-yil, 383-bet

maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Chunki bu orqali o‘quvchi ijodkor shaxsiyati haqida kengroq tushuncha hosil qiladi.

“Bir kun ul dabistonda tanho qolib kitobat qilur erdim. Noxostdin ko‘nglum sijnilig‘a bir mazmun jilvagustar o‘lub, fikrim bikridin bir bayt zoda o‘lundi. Filfavr tahrir nizomig‘a chektim, bu erdikim, bayt:

Mening maktab aro buldur murodim,

Xatimdek chiqsa imlo-u savodim.

Chun bu fardbaytni ustodim nazarig‘a yetkurdum, ko‘b istihsonlar aylab, haqqimda duoyi xayrlar qildi” (shoir tarjimayi holidan).

1.2. ADABIYOTNING TARIXIY TARAQQIYOTIDA SHOIR IJODINING O‘RNI.

XIX asrga kelib millatimiz tanazzul jarayonini boshdan kechirdi. Furqat Toshkentda yashar ekan, rus maktab-maorif tizimini ko‘rib hayratlandi. O‘zimizniki bilan taqqoslab, taraqqiyotdan nechog‘lik ortda qolganligimizni angladi. Taraqqiy etgan millatlar darajasiga ko‘tarilish uchun ta‘lim tizimini isloh qilish lozimligini tushunib yetdi. Telefon, telegraf, gazeta, vistavka kabi o‘sha payt uchun yangilik hisoblangan hodisalarning millat hayotiga kirib kelishini xohladi. “Jahon basti kushodi” - jahondagi barcha mushkulotlarni yechish yo‘li ilm-ma‘rifatda deb bildi. Millat farzandlarini shunga da‘vat qildi:

Jahon basti kushodi ilm birla,

Nadur dilni murodi ilm birla.

Ko‘ngullarni sururi ilmdandur,

Ko‘rar ko‘zlarni nuri ilmdandur.

Bu so‘zlar hamma davrlar uchun ham birday ahamiyatli. Hech bir zamonda eskirmaydi. Qolaversa, ilm-ma‘rifat qaysi mamlakatda, qay bir millatda bo‘lmasin, uni o‘rganish zarur. Bu - isbot talab qilmaydigan haqiqat. Furqat Rossyaning mustamlaka siyosatini maqtagan emas, u rus xalqining madaniyatini targ‘ib etdi.

Shunday madaniy daraja, shunday yuksalish bizda ham bo'lishini orzu qildi. Shoir "Suvorov haqida" manzumasini yozar ekan, hech shubhasiz, millat farzandlari orasidan u kabi sarkardalar yetishib chiqishini, millatning harbiy salohiyati yuksalishini istadi. Ma'lumki, Furqat mazkur asarni 1890-yil 5-oktyabrda Toshkentdagi rus teatrida ko'rgan tomoshasi - rus dramaturgi N.Kulikovning "Suvorov qishloqda, Milanda va yaxshi ayollar orasida" nomli dramatik asari ta'sirida yozgan. Manzuma shoirning millat uchun yangi hodisa hisoblangan teatr san'ati haqidagi kuzatishlari aks etganligi bilan ham diqqatga sazovordir. Furqatning "Masarratnoma", "Qasida" kabi asarlari ham mutaxassislar o'rtasida ayrim munozaralarga sabab bo'lgan. Shoir "Qasida" asari so'zboshisida shunday yozadi: "Arbobi nazardin umid ulkim, ushbu jaridag'a munsifona ko'ngul birla mutolaa va mulohaza aylagaylar. Mabodo xotirlarig'a xutur qilmag'oykim, ushbu so'zlar xushomadgo'ylik yuzidin ado topqon bo'lg'ay deb. Chunki maqsudimiz asli boshqa yerga resha chekmakligi ko'nglumuz ganjinasida maktum va muzmardur. Vassalom". Shoirning bu asarlarga insof yuzasidan baho berishni so'rab yozgan ushbu so'zlaridan keyin ham ular xususida yuzaki mulohaza yuritish arbobi nazar — olimlar uchun munosib bo'lmagan holdir. Qolaversa, shoir xorijdan yuborgan maktublaridan birida "Masarratnoma"ni "Yorkand shahrida Komiljonboy oqsoqolning ishorati bilan yozildi" desa, yana boshqa bir manzumasini "Janob Ostroumov to'ra farmoyishlarig'a muvofiq 31-noma gazet mazmunida bir manzuma tahrir aylab, xizmatlarig'a yubordim" deb yozadiki, shularning o'ziyoq shoir asarlarini baholashda qaysi mezonlar asosida yondashish lozimligi to'g'risida muayyan xulosalarga kelish imkonini beradi.

Furqat Toshkentda yashagan davrida o'zining tarjimai holini yozdi. Ta'kidlanganidek, shoirning ushbu tarjimai holi "Turkiston viloyatining gazet"da (1891-yilgi o'n uch sonida) e'lon qilingan. Asar shu paytgacha mutaxassislar tomonidan "Sarguzashtnoma", "Furqatnoma", "Ahvolot" kabi turlicha nomlanib keldi. Shoirning o'zi "Turkiston viloyatining gazet"da e'lon qilish chog'ida uni

“Xo‘qandlik shoir Zokirjon Furqatning ahvoloti - o‘zi yozgoni” deya nomlaydi. Shuning uchun mazkur sarlavhadagi “Ahvolot” so‘zini asar nomi sifatida qoldirish maqsadga muvofiq ko‘rinadi. Qolaversa, ushbu so‘z asar mohiyatiga ham mos tushadi. “Ahvolot” — memuar asar. Unda Furqatning bolalik davridan 1891-yilgacha, ya’ni Toshkentdan chiqib ketgunga qadar boshidan kechirgan voqealar qiziqarli tarzda, badiiy shaklda hikoya qilinadi. Asarda Furqatning bolalik davri, ilk bor maktabga borishi, buyuk salafilar asarlari mutolaasidan bahramand bo‘lishi, madrasa ta’limi, Qo‘qon xonligidagi tartibsizliklar, tirikchilik tashvishlari bilan Yangi Marg‘ilonga borishi, u yerda do‘stlar orttirishi, Qo‘qonga qaytishi, Muhyi, Muqimiy, Zavqiy, Nisbatiy va boshqa shoirlar adabiy davrasidagi faoliyati, Marg‘ilon va Xo‘jand orqali Toshkentga kelishi, yangicha ma’rifatparvarlik faoliyati, umuman, shoirning ona-Vatandagi ibratli hayoti xususida qimmatli ma’lumotlar berilgan. “Ahvolot”da, shuningdek, o‘sha davrdagi tarixiy vaziyat, rus bosqini munosabati bilan millat hayotiga kirib kela boshlagan yevropa turmush tarzi, madaniyati, shoirning mashhur zamondoshlari to‘g‘risida ham muhim fikrlar bayon qilingan. Ma’lum bo‘ladiki, asar faqat Furqat hayoti va ijodini o‘rganish nuqtai nazaridagina emas, millatimizning XIX asr ikkinchi yarmidagi tarixi va madaniy hayoti bilan yakindan tanishish jihatidan ham alohida ahamiyatga ega. Shuning uchun ham “Ahvolot” har doim mutaxassislar e’tiborini tortib kelgan. Furqat ijodi bo‘yicha shu paytgacha mamlakatimizda va xorijda yaratilgan tadqiqotlarda mazkur memuar asardan muhim manba sifatida foydalanilgan. Furqat hayoti va ijodiga oid manbalardan ma’lumki, u arab, fors, rus tillarini mukammal bilgan. Shoirning hind tilidagi “Pesayi axbor”, “Hablul-matin” gazetalaridagi ma’lumotlarga munosabat bildirib maqolalar yozganligi uning bu tilni ham yaxshi bilganligini ko‘rsatadi. “Qavoidi Chin va umuroti siyosiy” asari uning xitoy tilini ham ancha puxta egallaganligi dalilidir. Professor Sh. Yusupovning ta’kidlashicha: “Furqat o‘z asarini yaratishda birinchi manba sifatida foydalangan kitob xitoy muallifi Guang Shuyning qalamiga mansub bo‘lib, u endigina yozib tugallangan va

hali u vaqtlarda Furqat bilgan boshqa tillarning birortasiga ham tarjima qilinmagan edi”ki, bu ham ushbu fikrni quvvatlaydi. Furqat Yorkentdan “Turkiston viloyatining gazetasi” bosh muharriri N.P. Ostroumovga yo‘llagan, yozilgan sanasi ko‘rsatilmagan bir maktubida “Ushbu daf’a xat birlan bir kitobkim, shul vaqtdagi Chin davlati xonining vafot topqon otasi Cho‘ngxon o‘z tab’idin tasnif qilg‘on ekan, yaxshi zarurlik so‘zlari bor uchun xizmatingizg‘a yubordim”, - deb yozgan edi. “Qavoidi Chin va umuroti siyosiy” mazkur gazetaning 1905-yil 22-dekabr sonidan bosila boshlaganligi e’tiborga olinsa, Furqatning maktubi 1905-yilning o‘rtalarida yozilgan bo‘lib chiqadi. Oradan bir yilcha vaqt o‘tgandan keyin, demak, 1906-yili yo‘llangan yana bir maktubida (bu maktubning ham yozilgan sanasi ko‘rsatilmagan) shoir “O‘tgan yilda Xitoy xoni tasnif qilg‘on bir kitob birlan bir maktub xizmatingizga yuborub erdim. Ani(ng) borib tekkan va tegmagan sababidin hech xat yozmadingiz. Lozimdurki, iltifot qilib, bir maktub yozgaysiz”, - deb yozadi. “Qavoidi Chin va umuroti siyosiy” gazetaning 1905-yil 22-dekabr №50, 1906-yil 1-yanvar №1, shuningdek, 15-, 22-fevral 7-8-sonlarida e’lon qilingan⁹. Ma’lum bo‘ladiki, asar “Turkiston viloyatining gazetasi”da bosilgandan keyin ham, oradan bir yil o‘tsa-da, Ostroumov Furqatga gazetaning mazkur sonlarini yuborish tugul unga bu haqda bir og‘iz xabar berishnida lozim ko‘rmaydi. Shuning o‘ziyoq chor hukumatining Turkistondagi e’tiborli vakillaridan biri, missioner N. P. Ostroumovning shoir Furqatga bo‘lgan “hurmati” nechog‘lik ekanligini his etish imkonini beradi. Bugina emas. Gazetaning 1906-yil 22-fevral 8-sonida “Baqiyasi bor” degan qayd bo‘lishiga qaramay, keyingi sonlarida asarning davomi bosilmaydi. Uning bizga ma’lum qismida Xitoy qoidalari (“Qavoidi Chin”) haqida ancha mufassal ma’lumot berilgan. Nomlanishidagi “umuroti siyosiy” (“siyosiy ishlar”) atamasiga ko‘ra, uning Xitoy siyosiy hayotiga oid muhim qismi gazetada bosilmagan va bizgacha yetib kelmagan. “Qavoidi Chin

⁹ Бегали Қосимов, Шариф .Юсупов, Улуғбек Долимов, Шухрат Ризаев,Суннат Аҳмедов. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Т.: Маънавият, 2004. 92-бет.

va umuroti siyosiy” mazmun-mohiyati jihatidan ham, badiiyati bilan ham qimmatli asardir. Furqatning ta’kidlashicha, Xitoy podshohi Guang Shuy odamlarni besh qismga bo’ladi. Birinchi qism — podshohlar va katta-kichik mansabdorlar. Ikkinchi qism — ota va bolalar. Uchinchi qism — eru xotinlar. To’rtinchi qism — og’a va inilar. Beshinchi qism — yoru do’stlar. Asarda mamlakat tinch, el-yurt farovon bo’lishi, odamlar o’rtasidagi munosabatlar yuksak ma’naviyatga asoslanishi uchun mazkur besh toifa insonlar amal qilishi zarur bo’lgan qoidalar bayon qilinadi. Fikr ta’sirchanligini oshirish uchun hikoyatlar keltiriladi. Jumladan, birinchi qism haqida muallif shunday yozadi: “...Katta-kichik mansabdorlar chin ko’ngul va yaxshi e’tiqod birla podshohning farmonini tutub, jonlarini fido qilib, xizmatda ustuvor bo’lmog’liqdur. Va umum raoyo va fuqarolar hamma vaqt chin ixloslari birla podshohning davomi davlati va baqoi saltanatini Xudovandi karim dargohidin talab va istid’o qilmog’liqdurkim, fuqarolarning osoyishi podshohning davlati barqarorlig’ig’a manut va marbutdur”. Darhaqiqat, hamma zamonlarda ham mamlakat taraqqiysi podshoh —mansabdorlar – fuqaro munosabatlariga bog’liq bo’lgan. Katta-kichik mansabdorlar mamlakat rahbari farmonlarining hayotga tatbiq etilishi uchun “jonlarini fido qilib, xizmatda ustuvor bo’lsalar”, shubhasiz, bu yurt obodligiga olib keladi. Ikkinchi qism — ota va bolalar munosabatlari haqida yozar ekan, muallif ota-onaning “o’g’ul va qiz farzandini yaxshi tarbiyatlar birla boqib, ilm-u hunar ta’lim berib, mol-u pulini nisor qilishi, oxir umrida mulk-u ashyolarini meros qo’yib ketishi” ni alohida ta’kidlaydi. Farzandlarning ham “... ota-onasig’a o’runluq vafo qilishi” zarurligi, ularga “... libos va xo’rok vositasi birla xizmat yetkurub, duo olmog’liq va alarning farmonini podshohning farmonini tutqondek tutub, ehtiyot qilmog’liqlari” shart ekanligini qayd etadi. Ayniqsa, quyida keltirilgan fikrlarning tarbiyaviy ahamiyati benihoya katta: “Va yana o’g’ul bola xotun olsa, ota-onasig’a vafo qilmoqni ul xotung’a ta’lim bermog’liqdur. Va agar kelin qaynota va qaynonasig’a vafodorliq qilmasa, gunoh o’g’ulg’a bo’lg’ay. Va agar o’g’ulni(ng) o’z onasi vafot bo’lub, otasi boshqa xotun olsa, ango ham o’z

onasig‘a vafo qilgondak vafo qilmoqlig‘i lozimdur”. Ushbu so‘zlarga qat’iy amal qilish oilaviy munosabatlardagi juda ko‘p muammolarni hal qilgan bo‘lar edi. Asarning qoidalar bayon qilingan qismida Xitoy qoidalarining o‘ziga xos jihatlari yaqqol namoyon bo‘ladi. Jumladan, “O‘g‘ul va nabira o‘z ota-onasini va bobo-momosini dashnom bersa va xotun kishi ham qaynota va qaynonasini va qaynbobo va qayinmomosini dashnom bersa, andoq kishini(ng) jazosi — Xitoy qavoidida bo‘g‘ub o‘lduradur”. Keyingi qoida bo‘yicha ota-ona va bobo-momosini urgan o‘g‘il, nabira yoxud kelin qilich bilan chopib o‘ldirilishi ta’kidlanadi. Bu bizning o‘lchov-mezonlarimiz jihatidan qaralganda, benihoya shafqatsiz qoidalar bo‘lib tuyulishi aniq. Lekin ular zahirida ota-ona va bobo-momoni hurmat qilish farzand va nabiraning ham, kelinning ham burchi ekanligi, ularga dashnom berish yoxud qo‘l ko‘tarish osiylik bilan barobarligi kabi yuksak insoniy fazilatlar mujassam. Uchinchi qism — eru xotinlar haqida yozar ekan, muallif ulardan har birining oila baxt-saodatini ta’minlashdagi huquq va burchlari xususida so‘z yuritadi. Er har doim xotonga mardona bo‘lishi lozimligi, xotini xoh sohibjamol, xoh badnamo bo‘lsin, bir ko‘ngilda bo‘lishi zarurligi, agar badnamo xotin olib qolsa, Xudoning irodasiga bo‘ysunishi kerakligi, xotin erning ota-onasiga gustohlik qilsa, unga avval nasihat qilib, shundan keyingina tanbeh berishi maqsadga muvofiqligi alohida ta’kidlanadi. O‘z navbatida xotin ham eri xoh boy, xoh kambag‘al bo‘lsin, noshukrlik qilmay, Xudo bersa yaxshi kun ko‘ramiz deb yaxshi niyat qilishi, qaynota va qaynonasini o‘z ota-onasiday ko‘rib, ularning xizmatini bajonidil ado etishi zarurligi uqtiriladi. Asarda to‘rtinchi qism — aka-ukalar to‘g‘risida ham ibratli mulohazalar bayon qilingan. Jumladan, Furqat bu haqda shunday yozadi: “... bir ota, bir onadin tug‘ulg‘on og‘a-inilar bir-biri birla ittifoq bo‘lub, izzat va hurmat birla bo‘lmog‘liq va har ikki o‘g‘ul bir-birig‘a shafqat qilmog‘liqdur. Mundog‘ bo‘lsa, ota-ona farzandidin xushnud bo‘lur”. Beshinchi qism — yor-u do‘stlar haqida bildirilgan mulohazalar ham barcha zamonlar uchun birday ahamiyatli: “... bir kishi yana bir kishini do‘st tutarda rost so‘zlarni arog‘a solib,

ahd-u paymon bog‘lamog‘liq. Avval kerakkim, badasl va nodon kishini do‘st tutmag‘ay. Boyadki, vologuhar va sodiqul-qavl, vafodor kishini do‘st tutg‘ay. Agar do‘sti nomurod va faqir bo‘lib qolsa, avvalg‘idek muomala qilib, balki ziyodaroq lutf-u shafqat va mehr-u sadoqat ko‘rguzmog‘liqdur... Ota-onasig‘a va og‘a-inisig‘a vafo qilmag‘on odamni do‘st tutmag‘oykim, begona kishig‘a albatta vafo qilmaydur”. Asarda yozilishicha, mazkur besh toifa odamlar munosabati xususida Xitoy xoni maxsus farmonlar chiqargan. Shuningdek, asar yozilgan paytda ushbu qoidalarga amal qilinmayotganligi, ularga sal avvalroq rioya etilganligi ma’lum bo‘ladi. Furqat bu haqda: “Holo xoqon — mansabdor bu qoidalarni mujro qilmaydur” — deya ta’kidlaydi. Asarda bayon etilgan qo‘ni-qo‘shnichilik odoblari, o‘zaro oldi-berdi munosabatlarini tartibga solish borasidagi qoidalar ham ibratli. Bundan tashqari, asarda anosiri arba’a (o‘t, havo, suv va tuproq)ning fizik xususiyatlari va tibbiyotning ular bilan bog‘liq jihatlariga oid qimmatli mulohazalar bayon qilingan. Umuman, ushbu asar XX asr o‘zbek nasri namunasi sifatida Furqat ijodiy merosini to‘laqonli tasavvur etishda muhim ahamiyatga ega. Furqat ilmiy faoliyat bilan, xususan, adabiyotshunoslik, elshunoslik, tarix, tabobat, hay’at (astronomiya) kabi ilmlar bilan jildiy shug‘ullangan. Uning tabobat borasidagi shuhrati bir qancha manbalarda qayd etilgan. Ta’kidlanganidek, “Zubdatul-hukamo” (“Hakimlarning sarasi”) unvoni sohibi bo‘lganligiyoq uning tib ilmi borasidagi salohiyatini his etish imkonini beradi. “Ahvolot” da Furqat o‘zining Qo‘qon xonligi tarixiga oid asar yozganligiga ishora qiladi. Afsuski, bu asar hanuzgacha aniqlangan emas. Hozircha Furqatning to‘rt ilmiy asari xususida fikr yuritish imkoniga egamiz. Ulardan uchta elshunoslik (etnografiya) yo‘nalishidagi asarlar bo‘lib, “To‘y xususida”, “Aza xususida”, “Gap xususida” deb ataladi. Ularda shoir xalqimizning to‘ylari, aza marosimi, gapgashtaklar, ularning o‘ziga xos tartib-qoidalar haqida qimmatli ma’lumotlar beradi. To‘yda aytiladigan yor-yorlar, azada o‘qiladigan marsiyalar, gapgashtaklardagi she’r-qo‘shiqlar matnidan ayrim lavhalar beradi. Ushbu asarlar milliy urf-odatlarimiz,

qadriyatlarimizni o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Furqatning to'rtinchi ilmiy asari – adabiyotshunoslik yo'nalishida. "Ilmi she'rning qoidai avzonini bayoni" deb nomlangan ushbu asarni yozishda Furqat Navoiyning "Mezonul-avzon" asariga tayanadi. Asarda aruz vaznining eng muhim qonun-qoidalari bayon qilingan. Mazkur to'rt asar hajman uncha katta bo'lmasa-da, bizgacha ularning Furqat o'z qo'li bilan ko'chirgan matnlar asosida yetib kelganligi muhimdir. Ushbu asarlar mukammal nasta'liq xatida ko'chirilgan bo'lib, Furqatning xattotlik mahorati to'g'risida ham muayyan tasavvur bera oladi.

Furqat birinchi o'zbek jurnalistlaridan. Uning jurnalistlik faoliyati dastlab Toshkentda, "Turkiston viloyatining gazetisi" tahririyatidan boshlangan bo'lsa, keyinchalik xorijda yanada yuqori bosqichga ko'tarilgani ma'lum. Chet ellardan yozgan xalqaro ahvol, turli mamlakatlardagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, turli millatlarning urf-odatları, ma'naviy darajasi to'g'risidagi xabar va maqolalari uning jurnalist, publitsist sifatidagi yuksak salohiyati dalilidir. Bu jihatdan shoirning "Xo'qandlik Zokirjon Furqatning "Peysayi axbor" nom Hindiston gazetidin naql qilib yozgan xabari" sarlavhali maqolasi diqqatga sazovordir. Maqolada afg'on xalqining ingliz mustamlaka siyosatiga qarshi olib borgan ayovsiz kurashi xususida so'z boradi. Jumladan, shoir yozadi: "Ushbu vaqtlarda har o'n besh kunda bizga kelib turgan "Peysayi axbor" nom Hindiston gazetida yozibdurki, shul kunlarda anglis birlan ko'histoniy afg'onlarning arolarında bo'lub turgan muhoraba nihoyatda qattig'dur. Xususan, Savot mavzeida qiziq muhorabalar voqe' bo'lub turodur. Andin boshqa Navshahr degan mavze'da ham muhoraba bo'lub turodur. Qariybki, afg'on xalqi Navshahrni musaxxar qilsalar. Va yana bir jamoa afg'on lashkari Feshovar qal'asig'a yaqin borib turub, har kun muhoraba qiladurlar. Yana andin boshqa ikki-uch yerda xeyli qattiq muhorabalar bo'lubdur. Afg'on xalqining hadd-u hisobi yo'qdur. Ko'p anglislar vujud shahristonidin adam sahrosig'a yuz qo'yubdur. Bovujudi anglis lashkari paydarpay kelib turodur...". Maqola mazmunidan ko'rinib turibdiki, Furqat

mustamlakachilar tarafida emas. Aksincha, mazlum afg'on xalqining ozodlik kurashi tarafdori. Maqolada yana shunday yoziladi: "Malankan degan mavze'da o'n ming chog'lig' afg'on xalqi bilan anglis lashkari orasida muhoraba bo'lub, afg'on xalqi shikast topgon vaqtda afg'on xotunlari erlari qo'lidin urush asboblari olub, yakbora o'zlarini anglis lashkarig'a urub, bir yarim soatda anglislarga shikast beribdurlar". Ozodlik - muqaddas tuyg'u. Inson har qanday qiyinchilikka, musibatga bardosh berishi mumkin. Lekin ona yurtini begonalar egallamoqchi bo'lsa, haq-huquqlari poymol etilsa, e'tiqodiga, muqaddas tuyg'ulariga daxl qilinsa, uning ko'ziga o'lim ham ko'rinmaydi. O'z erki, ona zamin ozodligi uchun kurashga o'tlanadi. Furqat mazkur maqolani yozgan vaqtda uning jondan sevgan Vatani ham mustamlaka girdobida, vatandoshlari esa istibdod jabrini tortayotgan edi. Aslida Furqat Afg'onistondagi ingliz mustamlaka siyosatini fosh etish orqali yurtdoshlarini Turkistondagi chor Rossiyasi istibdodining g'ayriinsoniy mohiyatidan ogoh qiladi. Millatni o'z haq-huquqini anglashga, zarur bo'lsa, afg'onlar kabi o'z erki, ozodligi uchun kurashishga da'vat etadi. Ko'rinib turibdiki, Furqatning xalqaro jurnalist sifatidagi faoliyati benihoya ahamiyatli. Bugina emas. Furqat gazetchi (jurnalist) qanday bo'lishi kerak, qaysi bir mezonlarga rioya etishi, nimalardan saqlanishi lozim, degan masalalarga ham alohida e'tibor beradi: "Gazet muallifiga kerakkim, — deb yozadi u bir maqolasida, — insofpecha va rostandesha bo'lg'ay. Noloyiq va nomunosib so'zlarni gazetg'a solmag'ay va yozg'on kalomidin gazet o'qig'uvchilarg'a naf' va foyda hosil bo'lg'ay. Agar biror hikoyat yozsa ham aning zaminida bir foydalik mazmuni bo'lg'ay. Xorijiya va doxiliya ahvolotidin yozsa, adl va insof yuzidin rostliq birla yozg'aykim, e'tibor va istihsong'a bois bo'lsun". Yozilganidan buyon qariyb bir asr muddat o'tgan bo'lsa-da, ushbu mulohazalar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini zarracha yo'qotgan emas.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ldiki, Furqat ijodi tariximizda muhim bosqichni tashkil etadi. U maqola yozadimi, yoxud adabiy mavzuda biron bir asar yozadimi,

uning zaminida xalqni uygʻotish, maʼrifatga chorlash, ilm-u fanni targʻib qilish yotadi.

1.3. FURQAT HAYOTI VA IJODI YUZASIDAN TUZILGAN SAVOL-TOPSHIRIQLAR

Barchamizga maʼlumki, asarning badiiy qimmati, uni oʻqib, uqub boʻlganda oʻzini namoyon qiladi. Asar matnini toʻliqroq tushunishda bizga savol-javoblar yordam beradi. Chunki ular orqali oʻquvchilar tafakkur qiladilar, savollarga javob berish jarayonida asar matnini qayta oʻqib chiqadilar va buning natijasida oʻtilgan mavzu haqida kengroq tushunchaga ega boʻladilar. Zokirjon Xolmuhammad oʻgʻli Furqat hayoti va faoliyati yuzasidan tuzilgan savol-topshiriqlar taʼlimda oʻz samarasini bermay qolmaydi. Shoir hayoti haqida maʼlumot berilgandan soʻng quyidagi topshiriqlar keltirilgan:

1. Furqatning umr yoʻlidagi qaysi jihatlar ijodida aks etganini soʻzlang.
2. Shoirning maʼrifatchilik yoʻnalishidagi asarlari vujudga kelishi omillarini ayting.
3. Furqat sheʼriyatidagi gʻurbat tushunchasi qanday maʼnolarni anglatishi toʻgʻrisida fikrlaringizni bildiring.

Bu savollarga javob topish oʻquvchilarda qiyinchilik tugʻdirmaydi. Chunki shoirning hayot yoʻlidan xabardor boʻlgan oʻquvchi hech qiynalmasadan savollarga javob bera oladi. **Birinchi topshiriqni** quyidagi mazmunda bajarish mumkin: Furqatning lirikasida gʻurbat va hasrat ohanglari salmoqli oʻrin egallaydi. Bu uning hayot yoʻli bilan bogʻliq. 1892-yilda vatandan chiqib ketgan shoir umrining oxirigacha yurtga qayta olmaydi. Shuning uchun vatan ishtiyoqi va gʻurbat iztiroblari turli mavzudagi sheʼrlarda dardli va taʼsirchan ifoda etilga. Shoirning “Figʻonkim, ul buti siymin zaqandan ayrilib qoldim”, “Hasrato, kel-kel

beri, ul sho‘xi jonondin gapur”¹⁰ radifli g‘azallarining matla’sida “Bir qamar siymoni” g‘azalida bo‘lgani kabi taqdirning unga bergan sinovi – yurt judoligi bayon etilgan.

*O‘z diyoridin adashgan, Furqatiy devonaman,
Chug‘zi har vayronadurmen, baytul ezsondin gapur.*

Shoirning Istanbulda yozgan “Sabog‘a xitob” she’rida vatanni qo‘msash, do‘stlar sog‘inchi Navoiydagi kabi maktub shaklida ifoda etiladi. U Istanbuldagi “nasimi fayzi rab” bo‘lgan Milliy bog‘da sayr qilar ekan, undagi xurram “mardum” (odamlar) chehrasini ko‘rib, olis Toshkentdagi yor-u do‘stlarini esga oladi:

*Alar chun aylagach sayr-u safolar,
Esimg‘a tushti yor-u oshnolar...*

*Ayo bodi sabo, Olloh uchun tur,
O‘zingni Toshkand shahriga yetkur¹¹.*

Ikkinchi topshiriqqa quyidagi javob berish mumkin: Furqat lirikasida ma’rifatni targ‘ib qiluvchi she’rlar talaygina. 1890-yilning martida Toshkentda ekan, N.Ostoumov uni Yangi shahar qismiga tomoshaga olib boradi. Furqatni juda ko‘pchilik rus amaldorlari, ruslar xizmatidagi o‘zbeklar, general-gubernator bilan tanishtiradi. Shu yurishlar natijasida shoirning “Gimnaziya”, “Ilm xosiyati”, “Akt majlisi xususida”, “Vistavka xususida”, “Suvorov” kabi she’rlari yoziladi va “Turkiston viloyatining gazetisi”da chop etiladi. Bu she’rlarning barchasi masnaviy yo‘lida yozilgan bo‘lib, ularda maorifni isloh qilish, ilmga da’vat, fan va madaniyat yangiliklarini targ‘ib etish g‘oyalari olg‘a surilgan. Buning asosiy

¹⁰ Q.Yo‘ldoshev, V.Qodirov, J.Yo‘ldoshbekov. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. – T.: Yangiyo‘l polygraph service, 2010. 114-bet

¹¹ Q.Yo‘ldoshev, V.Qodirov, J.Yo‘ldoshbekov. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. – T.: Yangiyo‘l polygraph service, 2010. 114-bet

sababi shoir ularning maktablari, turmush-tarzi bilan tanishar eka, o‘zbek xalqining ham hech kimdan kam bo‘lmasligini xohlaydi.

Uchinchi topshiriq: Furqat she‘riyatidagi g‘urbat tushunchasi qanday ma’nolarni anglatishi to‘g‘risida fikrlaringizni bildiring. Furqatning g‘urbat ruhidagi she‘rlari sinchiklab o‘rgganilsa, undagi ayriliq va judolikning ma’nosi ancha kengligiga guvoh bo‘lamiz. “Manam sho‘rida bulbul” muxammasida birinchi bandidan shoir o‘zini bo‘stonidan adashgan sho‘rida bulbulga o‘xshatadi. Keyingi bandlarda “Nihoni kuydirib hajr o‘ti po‘st-u ustuxon aylar”, “Boshimda hushim yo‘q”, “Yetim qo‘zi kabi nolonlig‘im”, “Biyobon gardiman Majnun kabi Layli yodida” kabi misralar orqali holini sharh etgach, maqta‘da bu bayonlarni umumlashtirib, taxallusida ham izoh berib o‘tadi.

Darslikda shoirning g‘azallari tahliliga bag‘ishlangan savol va topshiriqlar anchagina bo‘lib, ularning barchasi matna tahliliga qaratilgan. Masalan, “Fasli navbahor o‘ldi” misrasi bilan boshlanuvchi g‘azaliga doir quyidagi savol va topshiriqlar keltirilgan:

1. Matla’dagi “zimiston” so‘zi qaysi ma’noda qo‘llangan va mazkur ma’no uchun nega aynan shu so‘z ishlatilgan?
2. Ikkinchi va uchinchi baytlarga diqqat qiling. Ifodadagi go‘zallik, mayinlik va musiqiylikni yuzaga keltirayotgan vositalarni aniqlang.
3. “*Bir sahar edim uyg‘oq: o‘t tutoshdi olamg‘a, Tog‘lar chekib larza, titradi biyobonlar*” baytini tahlil qiling. Qaysi tabiat hodisasi tasvirlanayapti?
4. Qumri va bulbullarning sayrashini shoir nima bilan bog‘laydi? Bu qushlar she‘riyatda nimaning ramzi sifatida keladi?
5. “*Bulbul o‘qug‘och yig‘lab subhidam xazon faslin, G‘uncha qon yutub, yuz chok etti gul giribonlar*” misralarini sharhlang. Bu go‘zal satrlarga qaysi tabiiy jarayon tasvirlanmoqda?

6. Gʻazal maqtasida ifodalangan fikrga munosabat bildiring. Fasl goʻzalligiga bagʻishlangan sheʼrning ijtimoiy ruhdagi fikr bilan yakunlanishini qanday izohlaysiz?

Oʻquvchilar yuqoridagi savollarga javob berish uchun yana gʻazal matnini oʻqib chiqishlari lozim.

Birinchi savolga oʻquvchilar quyidagi mazmunda javob beradilar:

Fasli navbahor oʻldi ketibon zimistonlar,

Doʻstlar, gʻanimatdur, sayr eting gulistonlar.

Matlaʼda “zimiston” soʻzi “qish” faslining fors-tojik tilidagi muqobili boʻlib, bu soʻzning birinchi maʼnosi yaqqol koʻzga tashlanib turibdi, yaʼni shoir “qish oʻlkamizdan chekinib, bahor fasli keldi, doʻstlar gulistonlarni sayr eting, chunki ular gʻanimat” demoqda. Ammo sheʼrning maqtasida

Kuymasun bu savdoda ne uchun dimogʻimkim,

Ranj-u gʻussada dono, kechsa shod nodonlar. (Ne uchun bu gʻussada dimogʻim kuymasin, axir donolarning hayoti gʻam-u gʻussada, nodonlar shod-u xurram boʻlsa!) deyilganiga eʼtibor qaratsak, sheʼrning matlaʼsidanoq bahor fasli tasviri orqali ijtimoiy mavzu qalamga olinganini koʻrishimiz mumkin. Yaʼni, qorongʻu kunlar ketib, yorugʻ kunlar keldi. Doʻstlar, bu kunlar gʻanimat, gulistonlarni sayr eting, degan maʼnoni ham keltirib chiqarish mumkin.

2-savolga javob:

Subhidam tushib shabnam, boʻldi sabzalar xurram,

Gul uza tomib kam-kam, yogʻdi abri naysonlar.

Nastaron yuvib yuzni, yosuman tuzib oʻzni,

Nargiz ochibon koʻzni intizori yoronlar.

Tongda shabnam tushib, oʻt-oʻlanlar sevindi, gul uza kam-kam bahor buluti yogʻdi. Har ikkala baytda ham bahorda kuzatiladigan goʻzalliklar eks etgan.

Nastarin, yosuman, nargiz gullarining ochilishi, tongda shabnam yushishi tasvirlanmoqda. Yoxud boshqa bir savolga javob topishga harakat qilib ko‘ramiz: *“Bulbul o‘qug‘och yig‘lab subhidam xazon faslin, G‘uncha qon yutub, yuz chok etti gul giribonlar”* misralarini sharhlang. Bu go‘zal satrlarga qaysi tabiiy jarayon tasvirlanmoqda? Ushbu baytda husni ta‘lil san‘ati qo‘llangan. Husni ta‘lil (arabcha – chiroyli dalillash) adabiy asarda tasvirlanayotgan biror hodisaga shoirona biror sabab ko‘rsatish, she‘rda biror voqeani unga daxli bo‘lmagan boshqa hodisa bilan izohlashdir. Uning asosida muayyan bir hodisani real – hayotiy mantiq bilan emas, balki shoirona xayol – badiiy mantiq bilan “isbotlash” yotadi¹². Shoir baytda *“Bulbul tongda yig‘lab xazon fasli haqida bayon etganda, g‘uncha qon yutib yoqasini yuz chok etdi, ya‘ni ochildi.*

Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqatning *“Surmadin ko‘zlar qaro, qo‘llar hinodin lolarang”* misrasi bilan boshlanuvchi g‘azalida quyidagi savol va topshiriqlar keltirilgan:

1. G‘azal matla‘ini sharhlang. Ayollarning milliy oroyish ashyolariga diqqat qiling va bugungi kundagi chiroy berish vositalariga taqqoslang. Siz qaysi birini afzal bilasiz?

2. *“Za‘faroniy ko‘ylak uzra arg‘uvoniy kamzihur, ro‘ymol og‘ushidin peshonaning ahvoli tang”* baytidagi tasvirdan kelinchakning qanday kiyinganligini izohlang.

3. *“Bori nozik panjalar oltun uzukdin zebnok, Qo‘l bilakuzukdin muzayyan, nuqradin og‘izda chang”* baytiga suyanib, o‘zbek kelinchagining nafosati to‘g‘risida fikr yuriting.

4. G‘azaldan olgan tasavvurlaringiz asosida kelinchakni o‘z so‘zlaringiz bilan tasvirlab bering. G‘azalni yod oling.

¹² Safo Matjonov, Sharafjon Sariyev. Adabiyot. – Toshkent. 2001-yil, 73-bet

5. “O‘zbek kelinchagi Furqat tasvirida” deb nomlangan quyidagi jadvalning har bir xonasini g‘azaldagi ularning mazmuniga mos keladigan so‘z va birikmalar bilan to‘ldiring.

Topshiriqni quyidagicha bajarish mumkin. Bunda sinf o‘quvchilarini uchta guruhga bo‘lib, har bir guruhdan bir o‘quvchi chiqadi va jadvalni quyidagicha to‘ldirish mumkin. Jadvalni birinchi bo‘lib to‘ldirgan guruh rag‘batlantiriladi.

Milliy oroyish ashyolari va zeb-ziynatlar	Tashqi ko‘rinish va kiyimlar	Ma’naviyati va xarakter xususiyatlari
Surma	Ko‘zlar qaro	Nuqradin og‘izda chang
Oltin uzuk	Za’faroniy ko‘ylak	G‘amza bira o‘lturur
Hino	Arg‘uvoniy kamzihur	Jilvalar birla yurur
G‘oza	Ro‘ymol	Purishva tannoz-u satang
O‘sma	Qoshlar kamon	Ro‘ymol og‘ushidin peshonaning ahvoli tang
Bilakuzuk	Payvasta mujgonlar xadang	Paridek silkinib
Gavhar osqon halqa		Sho‘x-u chang

Yuqoridagi savol va topshiriqlardan ham ko‘rinib turibdiki, ularning barchasi o‘quvchilarni qiziqtiradi, ayniqsa, matn tahlili yuzasidan berilgan savollar g‘azalni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Ikkinchi savol kelinchakning qanday kiyinganini izohlash uchun matnga tayanib, undagi tushunilishi qiyin bo‘lgan so‘zlarning mazmunini chaqish lozim bo‘ladi:

Za’faroniy ko‘ylak uzra arg‘uvoniy kamzuhur,

Ro‘ymol og‘ushidin peshonaning ahvoli tang.

O‘zbek kelinchagi sariq rangli ko‘ylak ustidan qizil kamzul kiyib olgan, ro‘mol og‘ushidan peshonaning ahvoli tang. Shu yerda savol tug‘iladi: nima uchun “ro‘mol og‘ushidan peshonaning ahvoli tang”? axir hozir ayollarimiz ro‘molni peshonadan o‘ramaydi-ku. Buning javobini toppish uchun hech bo‘lmaganda

darsliklarda berilgan Jahon Otin Uvaysiy, Nodira (Mohlaroyim)ning rasmlariga bir bor nazar tashlamoq zarur. Shunda savolning javobi topiladi. Chunki ayollarimiz qadimda ro‘mollarini peshonalaridan bog‘laganlar.

Darslikda Furqatning musaddasi yuzasidan quyidagi savollar keltirilgan:

Musaddasning to‘la matnini o‘qib, unda ifodalangan voqea mazmunini so‘zlab bering. Unda qanday ruh, kayfiyat yetakchilik qiladi?

She’rda qaysi obrazlar ishtirok etmoqda? Ularga ta’rif bering.

“O‘z yorini topmasdan ovora ekan mendek” misrasini sharhlang. Nima uchun shoir sayd – ohuni o‘ziga o‘xshatyapti?

Sayd obrazi faqat ovlangan ohuni ifodalaydimi yoki ramziy ma’nosi bormi?

Sayyod obraziga munosabat qildiring. U kimlarning timsolini gavdalantiradi?

Lirik qahramon sizda qanday taassurot qoldirdi? Ohuga munosabatiga ko‘ra uni o‘zingizga yaqin sezyapsimi?

II BOB. FURQAT LIRIKASINING O'RGANILISHI.

Furqat turli janrlarda qalam tebratgan bo'lsa-da biz uni lirik shoir sifatida e'zozlaymiz, asarlarini katta qiziqish bilan o'rganamiz. Shoirning lirik merosini o'rganishda ularning qanday sharoitda yozilganligi, mavzusi, aruzning qaysi bahrida ekanligi, badiiy san'atlarning qo'llanilishi kabilarga e'tiborga qaratish lozim bo'ladi. Umumta'im maktablarining 9-sinf adabiyot darsligida shoirning ikki g'azali va bir musaddasi o'rin olgan bo'lib, ularni o'rganish uchun ikki soat ajratilgan. O'qituvchi dars samaradorligiga erishish uchun o'quvchilarga Furqat she'rlari asosida kuylangan qo'shiqlarni eshittishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, "Fasli navbahor o'ldi, ketibon zimistonlar" misrasi bilan boshlanuvchi g'azali bir necha hofizlar, jumladan, aka-uka Yahyo va Muhsin Mo'minovlar tomonidan, "Sayding qo'yaver sayyod, sayyora ekan mendek" misrasi bilan boshlanuvchi musaddasi Ziyoda tomonidan maromiga yetkazilib kuylangan. To'g'ri, bu qo'shiqlarning har ikkalasini ham o'quvchilarning ko'pchiligi eshitgan, ammo o'qituvchi tomonidan bu qo'shiqlarning darsga olib kelinishi darsning jonliligini ta'minlaydi.

Akademik litsey darsligida shoirning quyidagi she'rlari keltirilgan:

G'azallar:

1. "Bir qamar siymoni ko'rdim baldayi Kashmirda".
2. "Surmadin ko'zlar qaro, qo'llar hinodin lolarang".
3. "Ne balolig' erdi, ey sho'xi dilor, surating?"
4. "G'aribi bu viloyat xonumonidin adashganman".
5. "Fasli navbahor o'ldi, ketibon zimistonlar".

Muxammaslar:

1. "Kshi holimni bilmas, mehribonidin adashganman".
2. "Manam sho'rida bulbul bo'stonidin adashganman".

Musaddas:

1. "Sayding qo'yaver sayyod, sayyora ekan mendek".

Bu she'rlarning ko'pchiligi avtobiografik mavzuda bo'lganligi uchun shoir hayot yo'li bilan bog'liq holda o'rganilishi lozim. Chunki darslikka kiritilgan bu she'rlarning asosiy qismi shoir chet elda yurganligida yaratilgan. Ikkala muxammasining ham radifi "adashganman" so'zi ekanligi ham buni isbotlaydi. Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat ham xuddi shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur kabi vatandan yiroqda uning diydoriga zor bo'lib yashaganligi sababli lirikasining bosh mavzusini ayriliq tashkil qiladi. Taxallusi taqdirga aylangan shoir shu sababli ham mana shunday mavzuda she'rlar yozgan.

2.1.SHOIR LIRIKASINING JANR TURLARI

Murakkab adabiy va ilmiy-irfoniylar asarlarni sharhlash bizda qadimiy an'ana. Ibn Sino, Ibn Arabiy, Jaloliddin Rumiy, Xo'ja Hofiz, Mirzo Bedil asarlari turli davrlarda sharh etilgani ma'lum. Ba'zan alohida asarlar, ba'zan butun-butun devonlar yoxud alohida olingan asarlar (masalan Sa'diy Sheroziyning "Guliston" asari) ma'no-mazmuni, ibora va istilohlari tushuntirilgan. Bu birinchidan, mashhur asarlar g'oyalari, ma'nosini soddaroq tarzda keng o'quvchilarga taqdim etishga ko'maklashsa, ikkinchidan, shu bahonada yangi-yangi asarlarning yaratilishi, o'lmas insoniy tuyg'ular, tafakkur va aqliy-ijodiy kashfiyotlarning rivoki, to'lishib borishiga sabab bo'lgan¹³. Shuning uchun ham asarning janri va mazmun-mundarijasini o'rganish ta'limda yaxshi samara beradi.

Furqat lirik janrning deyarli barcha - g'azal, musamman, musaddas, tarji'band, masnaviy, qasida, qit'a, fard kabi turlarida muvaffaqiyat bilan qalam tebratdi. Shoir lirik merosining salmoqli qismi g'azallar bo'lib, ularning soni 200 atrofida. Shoirning yuksak mahorati, she'riyatining nafosati ham aynan g'azallarida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, oshiqona kechinmlar bayonida, ma'shuqa jamoli tasvirida yangi, o'ziga xos tashbehlarni, ifoda vositalarini qo'llaydi. Tilining

¹³ Н.Комилов. Маънолар оламига сафар. – Т.: Tamaddun, 2012-йил. 3-бет.

o‘ynoqiligi, uslubning ravonligi, ifodaning xalqonaligi shoir g‘azallarini xalqqa yaqin va suyumli bo‘lishini ta’minlaydi:

*Chaman sahnida derlar sarv birla yosuman nozik,
G‘alatdur, qomating oldida guldin pirahan nozik.*

*Qachon ul Yusufi Miriyda bu husn-malohat bor?
Fasohatda, sabohatda, hama to‘g‘rida san nozik.*

Ochiqqa chamanzorda sarv daraxti bilan yosuman gulini nozik va ko‘rkam deyishlari g‘alati tuyuladi, chunki yorning qomati sarvdan, ko‘ylagi (pirahani) guldin nozik, ya’ni go‘zaldir. Ma’shuqasining husnini bashariyat tarixidagi eng go‘zal inson bo‘lmish misrlik Yusuf (s.a.)dan ustun qo‘yadi. Bunga uning asosi bor: mahbubasi fasohatda, sabohatda (xushro‘ylikda), bir-bir sanashning hojati yo‘qki, har to‘g‘rida noik – go‘zaldir!

*Kalomingdin halovat topmog‘i jonlarni ondinkim,
Dahon nozik, zabon nozik ki lab nozik, suxan nozik.*

Baytdagi yor go‘zalligi belgilarining sanog‘i mazmunni bo‘rttiradi, ifodaga musiqiylik bag‘ishlaydi. Bunday mubolag‘aviy tasvir ostida shoirning har tomonlama mukammal – ham jismonan, ham ma’nan go‘zal insonni targ‘ib etish maqsadi yotadi. Shuning uchun ham Fuzuliy g‘azaliga nazira sifatida yaratilgan “Surmadin ko‘zlar qaro” yoki “Munccha zolim bo‘lmish ul xunrez qaro ko‘zlaring” kabi ko‘plab g‘azallarida yor go‘zalligi, oshiqning unga sadoqati, cheksiz muhabbati avj pardalarda zavq bilan kuylanadi.

Biz o‘z ishimizning obyektida olgan har ikkala darslikda ham shoirning g‘azallari, musaddas va muxammaslari o‘rin olgan. Lirik janrlarni o‘qitish uchun, dastlab, ular haqidagi ilmiy-nazariy ma’lumotlar berilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki, bunday ma’lumotlar o‘quvchilarning asar haqida kengroq tushunchaga ega bo‘lishiga yordam beradi.

Gʻazal arabcha soʻz boʻlib, oshiqona soʻz, ayollarga xushomad kabi maʼnolarni anglatadi. Bu janr Sharq mumtoz adabiyotida keng tarqalgan hamda eng koʻp qoʻllangan sheʼr shakli boʻlib, oʻtmishda gʻazal yozmagan ijodkor boʻlmagan. Gʻazal dastlab arab adabiyotida paydo boʻlgan. Islom dini tarqlishi bilan bogʻliq holda boshqa hududdlar, jumladan, Oʻrta Osiyo xalqlari adabiyotiga oʻtgan. Turkiy adabiyotdagi ilk gʻazal “Qissas ar-Rabgʻuziy” asarida uchraydi. Rabgʻuziy bilan deyarli bir vaqtda yashagan Xorazmiyning “Muhabbatnoma” sida ham gʻazalning gʻoyat goʻzal va nafis namunalari bor. Mana, yeti asr oʻtdiki, gʻazal adabiyotimizdan mustahkam joy olib, xalqimiz uchun qadrli va suyuqli sheʼr shakli boʻlib kelmoqda.

Ishqiy kechinmalar ifodasi sifatida vujudga kelgan gʻazalning mavzu doirasi asrlar oʻtishi bilan kengayib bordi. Shoirilar oʻzlarining ijtimoiy, siyosiy, falsafiy va boshqa qarashlarini, tabiatga munosabatini bu koʻhna janrda ifodaladilar.

Gʻazal baytlardan tashkil topadi. Bu arabcha “uy” deganidir. Bayt ikki misradan iborat boʻladi. Gʻazalning birinchi bayti matlaʼ (arabcha “boshlanma”), oxirgi bayti maqtaʼ (arabcha “tugallanma”) deyiladi. Gʻazal oʻziga xos qofiyalanish tartibiga ega. Birinchi bayt – matlaʼdagi misralar bir-biri bilan oʻzaro qofiyalangan boʻladi (shartli ravishda a-a deb belgilanadi). Qolgan misralarning toq misralari ochiq qolib, juft misralari matlaʼga qofiyadosh boʻlib keladi (v-a, d-a, e-a...). anʼanaga koʻra, maqtaʼda shoirning taxallusi keltirilgan boʻladi. Ilmiy adabiyotlarda gʻazalning hajmi 3 baytdan 19 baytgacha boʻlishi qayd etiladi¹⁴.

Shu maʼlumotlarga tayangan holda, Furqatning gʻazallarini oʻqitish oson kechadi. Masalan, shoirning “Fasli navbahor oʻldi ketibon zimistonlar” misrasi bilan boshlanuvchi gʻazali zohiran oshiqona, botiniy tomondan esa ijtimoiy mavzudadir. Sheʼr sakkiz baytdan iborat boʻlib, aruzning hazaj bahrida yozilgan. Gʻazalda **“zimistonlar”, “gulistonlar”, “naysonlar”, “yoronlar”, “biyobonlar”,**

¹⁴ Q.Yoʻldoshev, V.Qodirov, J.Yoʻldoshbekov. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. – T.: Yangiyoʻl polygraph service, 2010. 119-bet

“afg‘onlar”, “giribonlar”, “parishonlar”, “nodonlar” so‘zlari qofiyadoshlikni tashkil qilib kelgan. So‘zlardagi “n” tovushi raviy hisoblanadi. O‘qituvchi dars samarodotligiga erishi maqsadida she’rni dastlab o‘zi ifodali o‘qib berishi lozim. Yo bo‘lmasa sinfda g‘azal shaydolari bo‘lsa, o‘sha o‘quvchilardan biriga g‘azalni o‘qitishi ham mumkin. Ammo uning ifodali o‘qishiga e’tibor qaratishi kerak. Chunki aruz vaznida yozilgan she’rlar barmoqdagi lirik asarlardan tubdan farq qiladi: aruz vaznida so‘zlarning tugashi kichik to‘xtamni vujudga keltirmaydi, u vazn talabi bilan boshqa so‘zlarga qo‘shib o‘qilaveradi.

Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqatning ko‘pgina g‘azallarini avtobiografik mavzuda ekanligini avvalgi bobda aytib o‘tgan edik. Quyida keltirilayotgan “adashganman” radifli g‘azali ham aynan shu mavzudagi g‘azallar turkumiga kiradi. G‘azal yetti baydan iborat bo‘lib, *“xonumonidin”, “oshyonidin”, “bo‘stonidin”, “xonadonidin”, “nishonidin”, “ostonidin”, “jonidin”, “soyabonidin”* so‘zlari qofiyadoshlikni tashkil qilgan. Qofiyadosh so‘zlardagi **“n”** tovushitirgak tovush, ya’ni “raviy” hisoblanadi. Shoir mumtoz adabiyotimiz vakili bo‘lganligi sababli uning lirikasini o‘rgatishda lug‘at bilan ishlashga to‘g‘ri keladi. G‘azalni ifodali o‘qigandan so‘ng o‘qituvchi she’rda keltirilgan tushunilishi qiyin bo‘lgan so‘zlarni lug‘at daftariga yozishini aytadi va kitobda keltirilmagan so‘zlar izohini o‘quvchilarga adabiyot tarixini yaxshi o‘zlashtirish uchun olimlarimiz tomonidan tuzilgan lug‘atlarning birortasidan foydalanib yozdiradi. Jumladan, “adashganman” radifli g‘azali yuzasidan quyidagicha lug‘at tuzish mumkin:

G‘arib – ar.musofir, boshqa joydan kelgan, kimsasiz, begona.

Xonumon – f. uy-joy, uy-joy jihozlari.

Murg‘ - f.qush, parranda.

Oshyon – f.in, uya.

Karam – ar.yaxshilik, olijanoblik, ehson, marhamat, saxiylik.

Adam – ar. Yo‘q, yo‘qlik.

Anqo – ar. Oti bor, o‘zi yo‘q afsonaviy qush (go‘yo qushlarning podshohi bo‘lib, Ko‘hi Qof) tog‘ida yashar emish.

Sargashta – f. boshi aylangan, sargardon hayron.

She‘r lug‘atini tuzib chiqish, birinchidan, asarning tushinilishini osonlashtiradi, o‘quvchilar asar mohiyatiga kirib boradilar, ikkinchidan, tushunilgan asarning xotirada qolishi osonlashadi. Bu she‘r Furqatning vatandan yiroqda yurgan kezlari yozilgan bo‘lib, g‘azalda yurt sog‘inchi yaqqol tashlanib turgan jihatlarni ilg‘ab olish qiyin emas. Masalan, g‘azalning birinchi bayti quyidagicha boshlanadi:

G‘aribi bu viloyat xonumonidin adashganman,

Basoni murg‘i vahshiy oshiyonidin adashganman.

ya‘ni, begona (g‘arib) bu viloyatda xuddi oshyonidan ayrilgan yovvoyi qush kabi uy-joyimdan adashganman.

Shoirning bu g‘azalidan tashqari, xuddi shunday mavzudagi ikki muxammasi ham akademik litsey o‘quvchilari uchun yaratilgan darslikka kiritilgan. Ikkala muxammasning ham birinchi bandida “adashganman” so‘zining radif bo‘lib kelishidan Furqat hayotida ayriliq, hijron alaminig ta’sir kuchi sezilarli iz qodirganini bilish mumkin.

Muxammaslarning biri

“Kishi holimni bilmas, mehribonidin adashganman,

Vatan ovoradurmen, bo‘stonidin adashganma.

Vatansiz benavodurmen, makonidin adashganman,

G‘aribi kuyi g‘urbat, xonumonidin adashganma.

Vayo bir mug‘i vahshiy oshiyonidin adashganman¹⁵”.

bandi bilan boshlanadi. Keying muxammas esa:

“Manam sho‘rida bulbul bo‘stonidin adashganman,

¹⁵ To‘xliyev B., Mirsamiqova R., Ametova O. Adabiyot (Majmua. Akademik litseylarning ikkinchi bosqich o‘quvchilari uchun). – T.: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010-yil, 387-bet

Yuzi gul, qomati sarvi ravonidin adashganman.

Dilim hajri-la qondur, dilistonidin adashganman,

G'aribi kuyi g'urbat xonumonidin adashganman,

Vayo bir mug'i vahshiy oshiyonidin adashganman"¹⁶. bandi bilan boshlangan. Misollardan ham ko'rinib turibdiki, bu muxammaslarni bir qarashda bitta she'r deb o'ylashimiz mumkin. Ammo birinchisida shoir Vatandan judo bo'lganligi uchun "adashganman" deya nola qilsa, ikkinchisida esa o'zini bulbul deb ataydi. Keyingi muxammasni bir qarashda hech ikkilanmay ishqiy mavzuda deb aytishimiz mumkin edi. Lekin har ikkala she'rning ham

G'aribi kuyi g'urbat xonumonidin adashganman,

Vayo bir mug'i vahshiy oshiyonidin adashganman.

bayti bilan tugashi bizni fikrimizdan qaytaradi. Shu yerda bir savol tug'iladi: nima uchun yuqoridagi uch she'rda ham shoir o'zini "mug'i vahshiy" deb ataydi, buning sababi nimada? Chunki shoir o'zini vatanidan yiroqda xuddi yovvoyi qush kabi his qiladi. Unga bu judolik juda og'ir botadi. Shoir ayriliqning kuchli ekanligini bir bandda quyidagicha izohlaydi?

Biyobon gardiman Majnun kabi Layli yodida,

Bo'lub oshufta zanjiri junun basti kushodida,

Qilurmish qat rah har kimsa oxir o'z murodida,

Yugursam har tarafga ayb qilmanglar bu vodiya,

Misoli telba itmen karvonidin adashganman.

Shoirning bandning birinchi misrasida talmeh san'atidan foydalangan, ya'ni Layli yodida kuygan Majnun kabi cho'lning changiman, deya nola qiladi. Furqat Vatandan ayrilgandan do'ng o'zini xuddi karvonidan aylangan telba it kabi his qiladi.

Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat lirikasi o'rganilayganda o'quvchi-yoshlarga quyidagi mazmundagi savollar bilan murojaat qilish mumkin:

¹⁶ O'sha kitob, 389-bet.

1. Furqatning “Laqab har kimsaga mardum ba qadri odatiy derlar” misrasini bilan boshlanuvchi bandni izohlang. Shoir bu orqali nima demoqchi?
 2. Shoirning yana qanday janrlardagi asarlarini bilasiz?
 3. O‘zbek adabiyotida Furqat hayotiga o‘xshash yana qanday shoirlarni bilasiz?
 4. Turfakim tasviri la’ling murdalarg‘a jon berur, Yo‘q erur, jono, ajab bo‘lsa Masiho surating” baytida qanday badiiy san’atlar qo‘llanilgan?
 5. “Sayding qo‘yaver sayyod, sayyora ekan mendek” misrasi bilan boshlanuvchi musaddasida qanday ruh, kayfiyat uetakchilik qiladi?
 6. She’rda qaysi obrazlar ishtirok etmoqda? Ularga ta’rif bering.
 7. “O‘z yorini topmasdan ovora ekan mendek” misrasini sharhlang. Nima uchun shoir sayd – ohuni o‘ziga o‘xshatyapti?
 8. Sayd obrazi faqat ovlangan ohuni ifodalaydimi yoki ramziy ma’nosi bormi?
 9. Sayyod obraziga munosabat bildiring. U kimning timsolini gavdalantiradi?
 10. Lirik qahramon sizda qanday taassurot qoldirdi? Ohuga munosabatiga ko‘ra uni o‘zingizga yaqin sezyapsizmi?
- Yuqoridagi savol va topshiriqlar orqali o‘quvchilarning bilimini va dunyoqarashini aniqlab olish mumkin bo‘ladi.

2.2. SHOIR SHE'RIYATINING MAVZUSI, G'OYAVIY YO'NALISHI.

Furqat lirikasining mavzusi rang-barang, unda ifodalangan g'oya insonni ulug'lash, vatanparvarlikka chorlash. Uning she'riyatida insonning insonga, Haqqa va Vatanga bo'lgan muhabbati badiiy misralarda ta'sirli aks etgan. Furqat hayoti Rossiya bosqini davriga to'g'ri kelganligi sababli uning ijodini ijtimoiy mavzudan yiroq deb ayta olmaymiz.

Chor Rossiyasining mustabid siyosati Turkiston xalqlari hayotining barcha - siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy jabhalarini birday zanjirband qilganligi ma'lum. Tabiiyki, millatparvar ziyolilar, jumladan, Furqat ham bunga befarq bo'lgan emas. Furqat "Munojoti musaddas" asarida bu holni "Kuffor bandi ichra sonsiz tugunda qolduk" deya og'ir iztirob bilan ta'riflaydi. Shoirning mazkur asaridagi quyidagi misralar ham istibdod iskanjasida qolgan yurt taqdiriga kuyinish hissi bilan yo'g'rilgan:

*Qozi-yu mufti, a'lam doim hazinu ma'yus,
Din posini tutay deb zindoni g'amda mahbus,
Bechoralar na qilsun bo'lsa siyosati Rus,
Qo'ymaydi bir tarafdin xalq ichra mangu nomus,
Rahm aylagil, Xudoyo, bechora, xastalarga,
Ranjuru zoru mahzun ko'ngli shikastalarga.*

Ushbu misralar orqali mustamlaka siyosatining haqsizlikka, zulmga asoslanganligini ochiq-oydin tasvirlagan shoir musaddasning boshqa bir bandida istibdod iskanjasida yurt iqtisodiyoti inqirozga yuz tutganligini, ahli bozor nakbatga qolganligini, tijoratning kasodga uchraganligini chuqur dard bilan ifodalaydi:

*Uch yil bo'lurki qolmish nakbatga ahli bozor,
Ko'rmas tijoratidin ko'p naf' xayli tujjor,
Ahli hunarda ham yo'q chandone ravnaqi kor,
Yo'qdur o'zungdin o'zga bir mehribonu g'amxor,*

*Rahm aylagil, Xudoyo, bechora, xastalarga,
Ranjuru zoru mahzun, ko'ngli shikastalarga.*

“Uch yil bo‘lurki qolmish nakbatga ahli bozor” misrasi asarning Qo‘qon xonligi rus qo‘shinlari tomonidan bosib olinganiga uch yil bo‘lgan paytda yozilganligini ko‘rsatadi. Furqatning shoir Abdulhaq maxzum Roiq arxividan aniqlangan “Begim” radifli dastxat she’rida ham shunga monand fikrlar ifodalangan:

*Shu'bada izhor etib nogoh charxi hiylasoz,
Boshladi afsun ila makru dag'osidin, begim.
G'unchai davlatni gul yanglig' parishon ayladi,
Tundbodi hodisoti mojarosidin, begim.
Oxirulamr hukumat gulshani bo'ldi xazon,
Keldi zog'u qoldi bulbullar navosidin, begim.*

Ushbu baytlarda yurtning taraqqiyot quyoshi so‘nib, tanazzul shomi boshlanganligi so‘ngsiz hasrat bilan ifoda etilgan. Charxi hiylasozning afsun ila makru dag‘osi — o‘sha paytda mamlakatda kechgan fitna-fasodlar, inqiroz jarayoni timsoli. Natijada “...g‘unchai davlat gul yanglig‘ parishon bo‘lgan. Hukumat gulshani xazonga aylangan”. Zog‘lar kelishi bilan bulbullar navositingan. Bulbul bog‘da sayraydi. Zog‘ning makoni esa - vayrona. Ta’kidlash joizki, mustamlaka Turkistonining ayanchli ahvolini Furqatgacha hech qaysi shoir bunchalik ta’sirli ifodalay olgan emas. O‘sha tarixiy vaziyatda, o‘sha ijtimoiy muhitda bu so‘zlarni bitish chinakam jasorat edi. Furqatning istibdodga, jabru zulmga, adolatsizlikka bo‘lgan nafrati boshqa asarlarida ham aks etgan. Jumladan, “Bo‘ldi” radifli muxammasida shoir shunday yozadi:

*Bahor ayyomi o'tti, na gul-u sarv-u suman qoldi,
Ki bulbul birla qumri o'rniga zog'-u zag'an qoldi,
Na jomi marg ichmay lolai xuning, kafan qoldi,
Chamanlardin nishon hech qolmadi, illo tikan qoldi,*

Zimistoni ajalni bodidin bori xazon bo'ldi.

Bahor — taraqqiyot ramzi. Shoirning yozishicha, u o'tib bo'lgan. Shuning uchun ham bulbul birla qumri o'rnini zog'-u zag'an egallagan. Bu - milliy davlatchilik o'rnini Rusiya mustamlakasi zabt etganiga ishora. Ajal zimistoni — istibdod timsoli. U bor mavjudlikni xazonga aylantirgan. Binobarin, istibdod tufayli milliy an'analar toptaldi. Millatning boshiga qora kunlar tushdi, huquqi, erki poymol etildi.

Yumub ko'zni, qadamni mardlar sori adam qo'ydi,

Vafosiz dahr alarni jonig'a toki alam qo'ydi,

Ajal farzandi odamni jahon mulkida kam qo'ydi,

Mingu uch yuz birinchig'a sana tokim qadam qo'ydi,

Hamani emdi ko'z tutg'oni bir sohibqiron bo'ldi.

Muxammasning dastlabki uch misrasida mustamlakaning ilk kunlaridanoq boshlangan ommaviy qatag'onga ishora qilinmoqda. Darhaqiqat, chor hukumati Turkistonda o'z hokimiyatini mustahkamlash, istibdod siyosatining davomiyligini ta'minlash maqsadida xalqni iloji boricha jaholatda asrash, millatning ongli, ma'rifatli qatlamini ayovsiz qatag'on girdobiga tashlash siyosatini olib bordi. "Yumub ko'zni, qadamni mardlar sori adam qo'ydi". Adam -yo'qlik, demakdir. Bu misra orqali qatag'on mashinasi mardlarni, ya'ni millat ziyolilarini shafqatsiz ravishda o'z komiga tortganligiga ishora qilinmoqda. Natija shunday bo'ldiki, "Ajal farzandi odamni jahon mulkida kam qo'ydi". Ya'ni, bu hol ommaviy tus oldi. Keyingi misrada shoir bu fojialar ro'y bergan sanani ham ochiq yozadi: "Ming-u uch yuz birinchig'a sana tokim qadam qo'ydi". Hijriy 1301-yil milodiy 1883-1884-yillarga to'g'ri keladi. Demak, rus bosqinining ayni avjiga mingan davri haqida gap ketyapti. Beshinchi misrada yanada ahamiyatli fikr ifoda etilgan: "Hamani emdi ko'z tutgoni bir sohibqiron bo'ldi". Darhaqiqat, millat bu paytda Sohibqironga, yo'lboshchiga muhtoj edi. Yurtni mo'g'ullar zulmidan ozod qilgan Sohibqiron - milliy ozodlik timsoli. Shuning uchun ham shoir millatga uningdek

bir rahnamoni orzu qiladi. Ko‘rinib turibdiki, Furqat she‘riyatida ozodlikka, milliy istiqlolga intilish tuyg‘usi chuqur dard bilan, betakror badiiy shakdda ifodalangan. Bu tuyg‘u ba‘zan ochiqcha, ayrim hollarda esa misralar tagmatnida aks etganligi kuzatiladi. Shoir asarlaridagi bunday qarashlar Turkistondagi millatparvar kuchlar, xususan, jadidlar harakatida uzviy davom etganligini kuzatish mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, Furqat va mustamlaka ma‘murlari o‘rtasidagi munosabatning zimdan yomonlashuviga, alaloqibat, shoirning go‘yoki “o‘z ixtiyori bilan, sayohat orzusida” xorijga ketishiga, amalda esa surgun qilinishiga sabab bo‘ldi.

Shoir chet ellarda kezar ekan, bir lahza ham Vatanidan ko‘ngil uza olmaydi. Yurtidan ayri tushganini dil-dilidan sezib turadi. Iztirob chekadi. Uning xorijda yozgan “Adashganman” radifli g‘azali va muxammasi buning yorqin misoli. She‘rga “adashganman” so‘zining radif qilinib, urg‘u berilishining o‘zida katta ma‘no bor. Qayerga bormasin, shoir o‘zini g‘arib, oshiyonidan ayrilgan qush, bo‘stonidan adashgan bulbul singari his qiladi:

G‘aribi bu viloyat - xonumonidin adashganman,

Basoni murg‘i vahshiy - oshiyonidin adashganman.

Yo‘q, yo‘q, u shunchaki Vatanidan emas, tandagi jonidan ayrilgan. Falak bir aylandi-yu, u boshidagi soyabonidan ayrildi. Boshiga g‘urbat oftobi tushdi. Bu olamga nur, hayot berguvchi odatdagi oftob emas, aksincha, hayotni so‘ndiruvchi, borliqni yo‘q etuvchi “olamtob” (olamni kuydiruvchi)dir. Shoir oftobga butunlay yangi ma‘no beradi, g‘urbat mazmunini anglashga xizmat ettiradi. “Ko‘rdim” radifli g‘azalida dunyo kezgan shoirning falsafiy o‘ylari berilgan. U dunyo odamlari (“ahli jahon”)da vafodan asar ko‘rmaydi. O‘z holidan birovga shikoyat qilishga hojat sezmaydi, chunki ularning ahvoli bunikidan “battar”. Uningcha, umuman, birov bilan gaplashish imkoni yo‘q. Chunki “Hamani ko‘zini ko‘r-u qulog‘i kar ko‘rdum”, — deb yozadi shoir. U Vatanga qayta olmasligini yurakdan sezadi. Shoirning “*Murod naxlini topdim-u besamar ko‘rdim*” (Murod daraxtini

topdimu mevasiz ko‘rdum), “Firog‘ kechasini oh, besahar ko‘rdum” deyishidan shu ma’no anglashilib turadi. Shoir Vatanidan kelgan har bir xat-xabarni ko‘ziga to‘tiyo qiladi. Zavqiyning 1898-yili yozgan satrlaridagi ehtirosli sog‘inchdan hayajonga tushadi:

*Jonimga tob soldi so‘zi firoq, Furqat,
Kelkim, xarob qildi bu ishtiyoq, Furqat!
Qosid, yetur payomim, har yerda topsang oni,
Zavqiyni toqatini qo‘p qilma toq, Furqat.*

Shoir Furqat darhol:

*Kezdim jahonni qolmay, Shomu Iroq,
Zavqiy! Bir topmadim seningdek ahli vifoq,
Zavqiy! Shavqi visoling ila hargiz qaror yo‘qtur!
Jonimni yoqti hajru ko‘nglum - firoq, Zavqiy! -*

degan satrlar bilan boshlanuvchi she’riy javob bitib yuboradi¹⁷. “Iqboli noraso”ligidan, “ma’yus toleyi”dan qadrdoniga shikoyat qiladi. Sharq-u G‘arb omuxta bo‘lgan muazzam Bombay ko‘chalarini kezar ekan, musofirligi har daqiqada esiga tushadi. Toshkentdagi ulfatlari bilan bo‘lib turgan dushanba kun suhbatlarini, “g‘ijjag-u setorlar”ni, qadrdoni — san’atkor Farzinxonni yodga oladi. Kashmirdagi go‘zal bilan uchrashuv va u bilan bo‘lgan suhbat (“*Bir qamar siymoni ko‘rdum baldai Kashmirda*” g‘azali) beixtiyor Vatan mavzusiga kelib taqaladi. “Qamar siymo” shoirdan “Tarki Vatan” sababini so‘raydi. Shoir taqdirga yo‘yadi. Hatto marg‘ilonlik shoir va olim, donishmand qadrdoni Umidiy-Havoii (1835-1905)ga yo‘llangan she’riy maktubida o‘z “Qori aka”sidan mo‘tabar kitoblarga qarab, taqdirini ko‘rib, yurtiga qaytish-qaytmasligini bilib berishni iltijo qiladi. Taqdir shoirni bo‘ysunishga majbur etadi. 1903-yili Toshboltuga yozgan she’riy maktubida Yorkentda “muqim qolmoq”ni “Xudo taqdiri” deb bilgani,

¹⁷ Бегали Қосимов, Шариф .Юсупов, Улуғбек Долимов, Шухрат Ризаев, Суннат Аҳмедов. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Т.: Маънавият, 2004. 84-бет.

“chunucharo” (nega, nima uchun) debon sabab izlash bandalikka mos kelmasligini qayd etadi. Shoir vatan judoligi taqdir taqozosi ekanligiga shubha yo‘q. Lekin buning obyektiv sabablari ham bor edi. Shoirning bir qancha asarlarida ham bunga ishoralar mavjud. Xususan, Zavqiyga yozgan mazkur she‘riy maktubidagi quyidagi satrlar bu jihatdan e‘tiborga molik:

Sargashta holatimdin voqiflik istar ersang,

Ibrat ko‘zini ochib garduna boq, Zavqiy.

E‘tibor bering: shoir sargashta holati sababini gardunda kechayotgan hodisalar zamiridan qidirishni tavsiya etmoqda. Uning boshqa asarlarida bu hodisalar mohiyati - yurtning istibdod iskanjasida qolganligi, “*g‘unchai davlat gul yanglig‘ parishon, hukumat gulshani xazon*” bo‘lganligi, bulbullar o‘rnini zog‘lar egallaganligi ochiq yozilgan. Demak, mazkur she‘riy maktub yozilgan paytda bu haqda ochiqcha yozish imkoni bo‘lmagan. Fikrni obrazlar vositasida, misralar tagmatnida berishdan o‘zga chora qolmaganligi ma‘lum bo‘ladi. Shoir boshqa bir nazmiy maktubida shunday yozadi:

Borurman gar qutulsam bu tilismi hayratafzodin,

Yetib imdod holimg‘a jam‘i muddaolardin.

Furqatning “*Bu tilismi hayratafzodin qutulsam borurman*” degan fikri chuqurroq o‘ylab ko‘rishni taqozo etadi. Demak, shoirning yurtga qaytish yo‘llarida to‘siqlar ko‘p bo‘lgan. U bularni ochiq aytmaydi. She‘riy maktublarida o‘z qadrdonlariga bu haqda ayrim ishoralar qiladi, xolos.

Furqatning “*Sayding qo‘yaber, sayyod, sayyora ekan mandek*” satri bilan boshlanuvchi musaddasi uning ijodida muhim o‘rin egallaydi. Sayd (ov), sayyod (ovchi), dom (tuzoq) obrazlari Sharq adabiyotida qadimdan bor. XVIII asrda turkman shoiri Andalib ushbu obrazlardan unumli foydalanib, ovchi tuzog‘iga tushgan ohuga hamdardlik tuyg‘usi bilan to‘lib-toshgan maxsus muxammas ham yozgan edi. Furqatning asari musaddas bo‘lib, bu ham shu an‘anada bitilgan. Lekin shoir yashagan zamon, Turkistonday yurtning egasi qo‘lidan ketib, istilo asrining

sayyodi qo‘liga tushishi unga, tabiiyki, yangi ma’no, yangi mazmun beradi. Qolaversa, furqatshunoslar ushbu musaddasning maydonga kelishida she’rda nomi zikr etiladigan Sa’dulla Hofizning yomonlar tomonidan fojiali o‘ldirilishini ham bir sabab qilib ko‘rsatadilar. Musaddas 7 banddan iborat. Dastlabki band shunday boshlanadi:

*Sayding qo‘ya ber, sayyod, sayyora ekan mandek,
Ol domini bo‘ynidin, bechora ekan mandek,
O‘z yorini topmasdan, ovora ekan mandek,
Iqboli nigun, baxti ham qora ekan mandek,
Hijron o‘qidin jismi ko‘p yora ekan mandek,
Kuygan jigari-bag‘ri sadpora ekan mandek.*

Shoir tuzoqqa tushgan ohuning holini xilma-xil tashbeh va muqoyasalar bilan tasvir etgach, ovchiga xitob qilib, uni banddan ozod etishini so‘raydi. Yashamoq, dunyoga shunchaki bir kelib ketmoq emas, shilliqurt misoli faqat qorin g‘amida g‘ovakda g‘imirlab o‘tib ketish ham emas. Yashamoq, birinchi navbatda, hur, erkin yashamoqdir. Bas, “rishtani (tuzoq iplarini) kes!..” hayqiradi shoir, tog‘larga chiqib, yori bilan qovushsin. Kel, besh kunlik sening davringda bechora o‘ynab-quvonsin. Tengdoshlari bilan dunyo ne‘matlaridan bahramand bo‘lsin. Umr bo‘yi sening duoyi joningni qilsin. Axir hijron o‘qlaridan jismi butun jarohat ekan. Jigar-bag‘ri ezilib, pora-pora bo‘lgan ekan-ku! Har bir jonivor o‘z jinsi bilan bo‘lmog‘i lozim. Har bir hayvonning o‘z yaylog‘i (yaylov joyi) va qishlog‘i (qishloq joyi)ga teng keladigan saodati yo‘q. Faqat uni ozod qilish va o‘z holiga qo‘yish kerak. She’rda ilgari surilgan g‘oyalardan biri—shu, mazmuni — shu. Lekin bu fikrlar beixtiyor har bir millatning turmush va taraqqiyoti mutlaqo uning mustaqilligi va milliy zamin hamda o‘z an‘analari asosida bormog‘i lozim degan va so‘ngroq jadidchilikning bosh masalalaridan biriga aylangan g‘oyani esga tushiradi. Bu hol Furqat ijodini yangi davr adabiyoti bilan bog‘laydigan muhim nuqtalardandir.

Tarji'band shaklida yozilgan musaddasning har bir bandi nihoyasida takrorlanib kelgan:

Hijron o'qidin jismi ko'p yora ekan mandek,

Kuygan jigari-bag'ri sadpora ekan mandek, —

misralari asardagi lirik ruhning yanada jo'shqin, ta'sirli bo'lishini ta'minlagan. Professor G'.Karimov ta'biri bilan aytganda "...musaddas mazmun jihatidan nihoyatda kuchli va chuqur bo'lib, kompoziniya jihatidan beqiyos tugallangan, badiiy forma va uslub jihatidan esa mislsiz yuksak asardir". Tabiiyki, chor hukumati Furqatdek benazir iste'dodning, millatparvar shoirning, ortidan ko'plab kishilarni ergashtira oladigan salohiyatli tafakkur sohibining Turkistonda yashashidan manfaatdor emas edi. Shuning uchun ham uning yurtga qaytish yo'llari berkitib qo'yildi. Xalq shoiri Abdulla Oripovning "Furqat nidosi" she'rida shunday misralar bor:

Yurt u yonda, men bu yonda, o'rtada hijron seli —

Anga qo'prik tashlamakka baytlarim bo'ldi asos.

Darhaqiqat, shoirning muborak vujudi uzoqlarda qolib ketgan bo'lsa-da, uning o'lmas ruhi asarlari orqali avlodlar qalbida yashab kelmoqda.

Furqat she'riyatida islom ma'rifati mavzusi yetakchi o'rinni tashkil etadi. Zero, u yoshlik chog'laridanoq diniy va dunyoviy ilmlarni mukammal egalladi. Madrasa ta'limini oldi. Arab va fors tillarini puxta o'rgandi. Shariat va tariqat ilmida kamolga erishdi. Furqat she'riyatini islom ma'rifati va ma'naviyatidan ayri tasavvur etib bo'lmaydi. Shoirning aksar baytlari Qur'oni karim oyatlari va hadisi shariflarga bitilgan she'riy sharhlar ekanligi ham ushbu fikrni quvvatlaydi. Shoir nazmida oyat va hadislariga murojaat ikki xil usulda bo'lganligi kuzatiladi. Birinchisi - oyat va hadislardan to'g'ridan-to'g'ri iqtibos keltirish. Ikkinchisi - oyat va hadislarining she'riy sharhi. "Qulungman" radifli g'azalda shunday bayt keladi:

Deding: "La taqnatu min rahmatillah",

Umid aylab ango boqg'on qulungman.

“La taqnatu min rahmatillah” (“Zumar” surasi, 53-oyat) oyati karimasi Qur’oni karim izohli tarjimasida: “Ollohning rahmat-marhamatidan noumid bo‘lmangiz!” deya sharhlangan. Mufasssir vatandoshimiz Sayyid Mahmud Taroziy — Oltinixon to‘ra mazkur va unga yondosh oyatlarni quyidagicha tafsir qilgan: «Bu bir necha oyati sharifa insonlarni tavba va inoyatg‘a da’vat berur. Xoh alar kofirlar bo‘lsunlar yo gunohkorlar bo‘lsunlar, Olloh taolo alarning tamomi kufr va gunohlarin mag‘firat qilur va o‘z rahmatig‘a doxil etur»¹⁸. Ko‘rinib turibdiki, oyati karima mazmuni teran. Furqatning xizmati esa uni go‘zal badiiy shaklda betakror ifoda etganligidir. Shoir asarlarida hadislardan ham xuddi shunday iqtibos olish hollari mavjud. Jumladan, u “Hajnoma”da shunday yozadi:

*Risolat tojdori shohi “Lav lak”,
Nubuvvat bahrída bir gávhari pok.*

Ta’kidlanganidek, Furqat she’riyatida oyat va hadislariga murojaatning ikkinchi – ularni she’riy sharhlash usuli ham mavjud. Misollarga murojaat etamiz:

*Qodirekim, yerga qo‘ydi yetti ko‘kni besutun,
Mohu xurshidu kavokibdin berib ziynat ango.*

“Xudoyi taolo shunday qodir zotdurki, osmonlarni ustunsiz ko‘tarib qo‘ygandur”. Birinchi misrada xuddi shu oyati karimaning she’riy sharhi berilgan. Ikkinchi misra mazmuni esa “Mulk” surasi 5-oyatiga muvofiq keladi: “Va, albatta, dunyo osmonini chiroqlar bilan ziynatladik”. Ta’kidlash joizki, Furqat mazkur baytda, ayniqsa, ikkinchi oyat mazmunini yanada aniqroq sharhlaydi. Oyati karimadagi “chiroqlar”dan murod — moh (oy), xurshid (quyosh), kavokib (yulduzlar) ekanligini go‘zal badiiy shaklda ifodalaydi. Quyidagi shohbayt mazmuni yanada ta’sirchan:

*Kulli ashyo junbush aylab zikrig‘a mashg‘uldur,
Vahshiyoni dasht, xaylul-bahru murgoni havo.*

¹⁸ Бегали Қосимов, Шариф .Юсупов, Улуғбек Долимов, Шухрат Ризаев, Суннат Аҳмедов. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Т.: Маънавият, 2004. 86-бет.

“yetti osmon, yer va ulardagi bor jonzot — mavjud bo‘lgan barcha narsa hamdu sano aytish bilan Ollohni poklar, yod qilur. Lekin, sizlar (ey insonlar) ularning tasbeh aytishlarini - poklashlarini anglamassizlar” (“Isro” surasi, 44-oyat). Mazkur oyati karimani Oltinixon to‘ra quyidagicha tafsir qiladi: “Ya’ni, har bir maxluq, yaralmishlarning har biri zaboni ila yo holi ila Parvardigor pokligin bayon qilur va aning hamdin aytur. Lekin, sizlar bilmassizlar. Chunki sizlar bilmagan lug‘atda tasbeh ayturlar”¹⁹. Oyati karimadagi teran mazmunni birgina baytda shunchalik betakror badiiy shaklda ifoda etish shoirdan nechog‘lik chuqur ilm, naqadar yuksak mahorat talab qilishini anglash qiyin emas. Shoir ushbu oyat mazmunini yana-da oydinlashtirib sharhlaydi. “Kulli ashyo”ning Ollohni zikr etishini ta’kidlagan shoir o‘quvchiga ta’siri kuchliroq bo‘lsin uchun ulardan ayrimlarini nomma-nom sanaydi. Ular — dashtdagi vahshiy hayvonlar (vahshiyoni dasht), dengizlardagi jonivorlar (xaylul-bahr), havodagi qushlar (murg‘oni havo). Bunda bayt tagmatnida ifodalangan ma’no yana-da e’tiborga loyiqdir. Ya’ni, mazkur jonivorlarki Yaratganning zikrini bir nafas bo‘lsin unutmas ekan, yaralmishlar afzali - Insonning bundan g‘ofil bo‘lishga haqqi yo‘q. Shoirning “Yo rab” radifli g‘azali matla’si quyidagicha:

Qaroyg‘on dilga bergil nuri pokingdin ziyo, yo rab,

Ketib zangi gunah oyinadek topsun jilo, yo rab.

Savol tug‘iladi: Dil ham qorayishi mumkinmi? Shoir “zangi gunah” deganda nimani nazarda tutmoqda? Baytdagi obrazli tasvir faqat shoirona mahorat mahsuli xolosmi? “Mo‘min kishi gunoh ish qilsa, qalbida bir qora nuqta paydo bo‘ladi. Agar tavba qilib, u gunohdan butunlay qaytsa, istig‘for aytsa, qalbi poklanadi. Mabodo gunohni ziyoda qilsa, qalbidagi qora yana ham ziyoda bo‘ladi” — deyiladi hadisi shariflardan birida. Ma’lum bo‘ladiki, shoir mazkur hadisdan ilhomlangan va undagi chuqur mazmunni she’riy baytlar zamiriga singdirgan.

¹⁹ Бегали Қосимов, Шариф .Юсупов, Улуғбек Долимов, Шухрат Ризаев, Суннат Аҳмедов. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Т.: Маънавият, 2004. 87-бет.

Shuning uchun ham bu gʻazalga Muqimiy, Muhyi, Muhayyir kabi zabardast shoirlar naziralar bitganlar.

Maʼlumki, mumtoz shoirlarimizning aksariyati tasavvuf hayotini amalda yashaganlar. Keyingi izlanishlar natijasida Furqatning ham tasavvuf ahlidan boʻlganligini tasdiqlovchi bir qancha dalillar aniqlandi. Xususan, “Qulungman” radifli sheʼrida shoirning oʻzi shunday yozadi:

*Iloho, tashlama Furqatni oʻtga,
Muridi hazrati Jiylon, qulungman.*

Mazkur bayt Furqatning qodiriya tariqati asoschisi, tasavvuf ilmida ulkan maktab yaratgan Shayx Abdulqodir Jiyloniyni oʻziga pir deb bilganligini koʻrsatadi. Shoirning boshqa sheʼrlarida ham bunga ishoralar mavjud. “Aylang madad” radifli gʻazal maqtaʼsi ham buning dalili:

*Furqatiy yoʻllarda qoldi, Gʻavsi Aʼzam dastgir,
Qoʻl tutargʻa yoʻq erur bir rahnamo, aylang madad.*

Maʼlumki, “Gʻavsul-Aʼzam” — Abdulqodir Jiyloniyni nisbasi. Mazkur baytda ham Furqatning ulugʻ shayxga boʻlgan ixlos va muhabbati ifoda etilgan. Furqatning tasavvuf hayotini amalda yashaganligiga koʻplab sheʼrlarida ishoralar mavjud. Afsuski, uning aynan qaysi piri komil tarbiyasini olganligi hozircha maʼlum emas. Shu paytgacha shoir hayoti va ijodi boʻyicha yaratilgan tadqiqotlarda uning arab mamlakatlarida boʻlganligi qayd etilgan boʻlsa-da, haj arkonlarini ado etganligi toʻgʻrisida soʻz yuritilmagan edi. Keyingi izlanishlar Furqatning nainki haj ibodatini ado etganligi, hatto shaxsiy muhrida ham hoji unvoni aks etganligini isbotladi. Jumladan, shoirning Oʻzbekiston Markaziy Davlat arxivida saqlanayotgan Yorkentdan 1896-yil avgust oyida yuborgan va sana qoʻymasdan yoʻllagan maktublarida “Zokirjon hoji” unvoni bilan, shuningdek, 1905-yil 10-iyulda yuborgan maktubida “Hakim Zokirjon hoji” degan bitik bilan muhr bosilgan. Shoir haj ibodati taassurotlari haqida bir qancha asarlar, jumladan, “Hajnoma” ham yozgan. Oʻz davrining eʼtiborli manbalaridan oʻrin olganligi shoir

“Hajnoma”sining nechogʻlik mashhur boʻlganligi dalilidir. “Hajnoma” tarjiʻband yoʻlida yozilgan boʻlib, 12 band, 216 misradan iborat. Birinchi band paygʻambar alayhissalom ravzasini ziyorat etish sharafiga noil etganligi uchun Yaratganga shukrona, nabiyalar sarvariga salovati durud ruhi bilan sugʻorilgan. Ikkinchi va uchinchi band Madinayi munavvaradagi Harami sharif — Al-masjid an-nabaviy vasfiga bagʻishlangan. Shoir Haramni joʻshqin bir muhabbat bilan tavsif etadi:

*Bino chogʻida meʻmori — maloik,
Suvi — kavsar ani, tufrogʻi — anbar.
Suvi tufrogʻini loy aylaganda
Somon oʻrnigʻa solgʻon mushki zaʻfar...*

Toʻrtinchi band paygʻambar alayhissalom meʻroji taʻrifiga bagʻishlangan. Shoir nabiyalar sarvarining ummatlarga nechogʻlik mehribon ekanligi, meʻrojda — Haq taolo huzurida ham gunohkor ummatlari gʻamini chekishini quyidagicha tasvirlaydi:

*Hilol erdi buroqi summigʻa naʻl,
Oʻshal oqshomki, qildi sayri aflok.
Buroqu Jabroilu qoldi raf-raf,
yetushti oʻzi Haq qurbigʻa cholok.
Dedi Tangri: “Habibim, yo Muhammad,
Tila mandin bu dam, “Inna aʻtoynak”.
Dedikim: “Ummatimni magʻfirat qil,
Erurlar osiyu saffoki bebok”.*

Beshinchi band “Odam farzandlarining afzali, olam yaralishining, bani Odam mukarramligining boisi” Muhammad alayhissalom vasfiga, oltinchisi ravzai muborak tavsifiga bagʻishlangan. Yettinchi bandda Uhud togʻi, sakkizinchisida Masjidul-Qubo ziyorati taassurotlari joʻshqin misralarda ifodalanadi. Toʻqqizinchi bandda Qiblatayn masjidi tarixi goʻzal badiiy lavhalarda aks etgan. Oʻninchi band

shoirning inson va uning mohiyati xususidagi falsafiy xulosalari ifodalangani bilan alohida ajralib turadi. Jumladan, u shunday yozadi:

*Kel, ey jon, bo'lsa ummidi najoting,
Xudo toatig'a sarf et hayoting.
Bu yanglig' jurmu isyon birla kechsang,
Subhi Mahsharda kelmasmu uyoting...
Qutulmassan qochib hargiz o'lumdin,
Agarchi uchgali bo'lsa qanoting.
Tiriklikda Xudog'a bandalik qil,
O'lub borsang berur xatti baroting...
Halol o'lsa hisobin san berursan,
Qolur moling olib binnu banoting.
Faromush aylama hargiz mamoting,
Ajaldin olmading xatti omoni.*

O'n birinchi band Madinayi munavvara madhiga bag'ishlangan. Quyidagi misralar payg'ambar alayhissalomning muborak vujudlari abadiy qo'nim topgan bu shaharga shoirning qanchalik ehtirom bilan qaraganligini ko'rsatadi:

*Chin ummat nazdida qimmat emasmu
Guhardin sangi xoroi Madina.
Na man tanho, kimiki ummatidur,
Qilur doim tamannoi Madina.*

Orifona tazarru aks etgan bu misralar shoir tuyg'ularining naqadar samimiy ekanligini ko'rsatadi. Umuman, Furqatning barcha asarlari kabi "Hajnoma"sida ham inson va uning mohiyati bilan bog'liq falsafiy fikrlar betakror badiiyat ila ifoda etilgan. Ta'kidlanganidek, diniy-ma'rifiy va tasavvuf axloqi yo'nalishidagi asarlar Furqat ijodida yetakchi o'rin tutadi. Bu asarlarni yangicha tafakkur asosida tadqiq etish va ularning jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishdagi o'rnini belgilash furqatshunoslikning dolzarb vazifalaridandir.

Shoir lirikasini o'qitishda uning mavzusi, g'oyaviy yo'nalishlariga e'tibor qaratish ta'limda yaxshi samara beradi. Zero asarning mag'zini chaqmasdan, uni uqmasdan biror natijaga erishish qiyin.

2.3. FURQATNING BADIY TASVIRDAGI MAHORATI.

Furqat she'riyatda: birinchi navbatda Navoiy va Fuzuliyni o'ziga ustoz bildi. Ko'proq shulardan ilhom oldi. Goho bu ilhom mavzu va ohang uyg'unligi darajasiga ko'tariladi. Masalan, Navoiyning mashhur bir tarji'bandi bor: so'nggi bandi "Nechuk may bila bo'lmasin ulfatim" satri bilan boshlanadi. Shoir bu sirli dunyo qarshisida hayratdan lol qolganligini, quyosh u yoqda tursin, hatto bir zarraning ham mohiyatini anglab yetolmaganini, shu jumladan, insonning dunyoga kelmagi va ketmigi ham uning uchun mutlaqo qorong'u qolganini, bu ishda na u umid qilgan ilm, na taqvo-yu toat, na jamoa bilan suhbatlar, na shayxi murshid, na tabibi hoziq yordam bera olganini, hech biri uning mushkulini hal qila olmaganini iztirob bilan aytar va band

"Xarobat aro kirdim oshufta hol,

May istargailgimda sing'on safol²⁰"—bayti bilan yakunlanar edi. Furqatning xonandalar tomonidan sevib aytiladigan "Ko'ngul dardiga topmay boraman hargiz davo istab" misrasi bilan boshlanadigan g'azali ruhan shu tarji'bandga g'oyat yaqin. Bu yerda shoir "ko'ngil dardiga davo" istaydi. U ham "shayxlar ostonig'a" bosh uradi, "zohid ayog'iga" o'zini tashlaydi, "yaxshilar" etagidan tutadi, "begonalar"ni oshino qiladi, lekin hech biridan najot topa olmaydi.

Surmadin ko'zlar qaro, qo'llar xinodin lolarang,

G'ozadin yuzlarda tobu o'smadin qoshlar tarang. matla'li mashhur g'azalining birinchi satri Fuzuliydan tazmin sifatida olingan. Umuman, Furqat

²⁰ To'xliyev B., Mirsamiqova R., Ametova O. Adabiyot (Majmua. Akademik litseylarning ikkinchi bosqich o'quvchilari uchun). – T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010-yil, 42-bet

mumtoz adabiyotimizning sir-sinoati bilan yaxshi tanish. U yor tasvirini chizar ekan yoxud oshiqning quvonch-u iztiroblarini ifoda qilar ekan, she'riyatimizning boy obraz va timsollaridan unumli foydalanadi, ularni davom ettiradi.

Mana qosh tasviri:

O'smalik qoshlarmu yo shamshir qondin zangliq?

(Fuzuliyda:

Muqavvas qoshlaringki, vo'sma birla rang dutmishlar.

Qilichlardurki qonlar to'kmak ila zang dutmishlar.)

Yuz va soch:

Yuz uza kokilmidur har sori pechu tob ila?

Ganji husnungmu yotur ikki ajdar ustida.

Yuz-husn xazinası, yuz uzra tushgan ikki kokul-ikki ajdar. Afsonalarga ko'ra, xazinalarni ilonlar, ajdaholar qo'riqlagan. Ko'p ishlatilgan obrazlardan. Shoir tashbih, tanosub, talmeh kabi bir qator she'r san'atlaridan foydalanmoqda. Xuddi shu "Ustida" radifli g'azalidagi ko'zning ta'rifini ko'raylik:

Ikki jodu nargising solg'ay jahong'a fitnalar,

Bo'lmasa uryon qoshingdin ikki xanjar ustida.

Ko'z — nargis. Bu o'xshatish ilgaridan bor edi. Shoir "nargis" ga jodu (sehrgar) sifatini beryapti. Bu ham yangilik emas. Agar u ikki sehrgar nargisning tepasida yalang'ochlangan ikki xanjar (qosh) bo'lmaganida edi, ular olamga fitna sola olar edilar. Betakror husni ta'lil keltirilgan.

Shoir qosh-u ko'zlarni g'oyat nozik psixologik holatlar bilan bog'laydi:

"Ketil ul yon!" - deb ishorat qilsa har gal qoshlaring,

"Kel beri!" - deb aylashur ohista iymo ko'zlaring.

Lirik g'azallarida Furqat buyuk salaflari an'alarini munosib davom ettirdi, hatto ulardagi ayrim obrazlarni inja ma'nolar bilan boyitdi, yangi pog'onaga ko'tardi. Masalan, Navoiyning:

Nuqtayi xoling nedin shirin labing ustidadur,

Nuqta chun ostin bo‘lur har qaydakim yozilsa “lab”.

baytidagi obrazli tasvirni Furqat quyidagicha davom ettiradi:

“Nuqta lab ustida bejodur?” dedim. Aydi kulub:

“Sahv qilmish kotibi qudrat magar tahrirda?”²¹

Ma’lumki, arab imlosida “lab” so‘zi yozilganida “b” ning nuqtasi harfning pastki

qismiga qo‘yiladi (لب). Ma’shuqaning xoli esa labining tepasida joylashgan. Hazrat Navoiyda ushbu obrazga oid so‘z o‘yini monolog tarzida berilgan bo‘lsa, Furqatda bu dialog ko‘rinishini olgan. U “Nuqta lab ustida bejodur?” deganidayoq hazrat Navoiy baytidagi ma’noni to‘la ifodalay olgan. Bu savolga ma’shuqa javobining berilishi esa obrazni yangi bir bosqichga yuksaltirgan. Yoxud Navoiy badiiyatining yuksak namunalaridan bo‘lgan:

Quyoshdek chehra birla tiyra kulbam aylagach ravshan,

Menga titratma tushdi zarra yanglig‘ iztirob aylab.

baytidagi quyosh va zarra obrazlari vositasida yaralgan betakror badiiy tasvirni Furqat tamomila yangicha, o‘ziga xos yo‘sinda tasvirlaydiki, bu uning benazir salohiyati dalilidir:

Jomai zarkash kiyib ot o‘ynatib chiqsang, nigor,

Bo‘limg‘aymu zarradek xurshidi xovar beqaror.

Ya’ni, Furqat tasvirida mahbubaning aql bovar qilmaydigan husn-jozibasi qarshisida endi oshiqqina emas, Navoiy g‘azalida unga teng qilingan quyoshning o‘zi ham zarradek titroqqa tushadi.

Furqatning navbahor, bahor ayyomi haqidagi jo‘shqin g‘azallari allaqachon xalq mulkiga aylangan. Lekin bir qator she’rlari singari tabiat haqidagi bu xil g‘azallari ham dononing xorligi-yu, nodonning azizligi haqidagi jamiyat qurilishiga oid gaplarga ulanib ketadi. Umuman olganda, unda insoniy qadr,

²¹ To‘xliyev B., Mirsamiqova R., Ametova O. Adabiyot (Majmua. Akademik litseylarning ikkinchi bosqich o‘quvchilari uchun). – T.: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010-yil, 384-bet

millatning yuksak sha'ni haqida ham yaxshigina she'rlar bor. Shulardan biri "Bormasmiz" radifli g'azalidir.

Biz, istig'no eli, qichqirmag'on ma'vog'a bormasmiz,

Agar chandiki xirman aylasa dunyog'a bormasmiz.

matla'si bilan boshlanadi she'r. Matla'ning ma'nosi, sodda qilib aytganda, chaqirilmagan joyga bormaymiz, degani. Lekin bu naqadar baland ohangda, jildiy va tantanavor aytilmoqda. Biz "istig'no eli" — izzatini biluvchi, diydasi to'q odamlarmiz, chaqirilmagan joyga bormaymiz. Mol-dunyogina emas, tasavvur qiling: olam sahrosida suvsiz tashna qoldik. Oldimizdan mavj urib yotgan daryo chiqib qoldi. Agar shu daryoga zarracha malol kelsa va buni bilsak, bormaymiz:

Agar lab tashna qolsak, filmasal sahroyi olamda,

Malolat zohir etsa, mavj uran daryog'a bormasmiz.

O'zbek milliy psixologiyasini belgilashda g'oyat xarakterli she'r. Milliy ruhni g'oyat va benihoya xalqona beruvchi bunday she'r Furqatdan oldin ham, keyin ham adabiyotimizda uchramaydi. Umuman, Furqat lirikasida boshqa hech bir shoir merosida uchramaydigan, kutilmagan lavhalar ko'p. Masalan, shoirning bir g'azalida lirik qahramon o'zining yor ishqiga nechog'li sodiq ekanligini quyidagicha dalillaydi:

Oshiqi sodiqlig'imga bovar aylarsanmu, yor,

Qozi muhrin bostirib, xat birla iqrar aylasam.

Maqsud Shayxzoda ta'biri bilan aytganda: "Sevgi maktubiga qozi muhrini bostirish! Kutilmagan va g'ayrioddiy detal!" Shoir lirikasida ham majoziy, ham haqiqiy ishq bilan bog'liq beqiyos namunalar mavjud. Boshqa mumtoz shoirlarimiz kabi Furqat ham majoziy ishqqa haqiqiy ishq yo'lidagi bir bosqich sifatida qaragan. Quyidagi bayt bunga dalil bo'la oladi:

Haqiqiy oshiq ersang, gulga nechuk nola aylarsan,

Xudog'a yig'lag'ilkim, gul emas faryodras, bulbul.

Ya'ni: "Ey bulbul, o'zingni haqiqiy oshiq deb hisoblasang, gulga emas, Xudoga nola qil. Chunki faryodras (faryodni tinglovchi, rahm qiluvchi) gul emas – Xudo". Demak, shoirning fikricha, modomiki haqiqiy ishq darajasiga ko'tarilmas ekan, majoziy ishq inson kamoloti uchun hech qanday naf keltirmaydi. Mazkur fikr baytda ramzlar vositasida, go'zal badiiy shakdda ifodalangan. Yoxud mana bu bayt mazmuniga e'tibor bering:

*Jahon ahli hama begonadur rohi haqiqatda,
O'zungdin o'zga yo'qdur qo'l tutarg'a oshno, yo rab.*

Furqat yana bir she'rida shunday yozadi:

*Ey muhabbat ahli, ramzi ishq fahm aylay desang,
Yozilan xuni jigardin, Furqat, ash'orimg'a boq.*

E'tibor berilsa, shoir ishq ramzini fahm etish xususida bahs yuritmoqda. Xuddi shu

jihatdan uning:

*Loladek jamolingni bir yo'li ko'rub zohid,
Necha yilg'i zuhdidin dog' o'lub pushaymondur.*

kabi misralarini sharhlaganda ramzlar, timsollar mohiyatini anglash, shundan keyingina bir xulosaga kelish maqsadga muvofiqdir. Shoir odamlarni ikki toifaga bo'ladi: ahli Haq va ahli dunyo. Uning fikricha, "sorig' oltin kasrati", ya'ni dunyo matohini ko'paytirishga bo'lgan intilish ko'ngilni qoraytiradi:

*Sorig' oltin kasrati ko'ngulni aylaydur qaro,
Chunki safro bo'lsa g'olib o'zga savdo tortadur.*

Ahli dunyo - dunyo matohiga ko'ngil qo'yganlar o'z manfaatlari yo'lida har qanday muqaddas tuyg'uni qurbon qilishlari mumkin. Chunki dunyo sarvatiga erishmoq — ularning bosh muddaolari. Shu bois bundaylardan yiroq bo'lmoq kerak:

*Ahli dunyo suhbatlari ichra sharobi nobdin
It yaloqi ichra ichgan qip-qizil qon yaxshiroq.*

It - vafo timsoli. Ahli dunyodan ko‘ra it ham afzalroq. Chunki u vafo ahlidan. Dunyoparastlarni shunchalik malomat qilgan shoir muhabbat ahlini ulug‘laydi. Ularga yor bo‘lish saodat kaliti ekanligini alohida ta’kidlaydi:

Bir nafas ham bo‘lmag‘il bedardlarg‘a hamnishin,

Qayda bir ahli muhabbat bo‘lsa anga yor bo‘l.

Shoirning yuksak badiiy mahorati, she’riyatining nafosati tasvirdagi o‘zgachaligida namoyon bo‘ladi. O‘qituvchi Furqatning tasvirdagi mahorati haqida so‘zlab, o‘quvchilarga uyga vazifa sifatida she’rlarini yod olib kelishni va yuqoridagi kabi tasvirlarni topib kelishini aytadi.

XULOSA

“Har qanday odamga uning qilgan ishlariga qarab baho berish kerak” (Servantes)²² ekan, shu jihatdan, biz: “Furqat - milliy ma’naviyatimizning eng zabardast siymolaridan biri”, – deb ayta olamiz. Uning serqirra ijodiy faoliyati millat yoshlarining barkamol shaxslar bo‘lib voyaga yetishida, shubhasiz, muhim ahamiyatga ega. Shu sababli ham uning ijodini o‘rganish, asarlarini targ‘ib qilish ta’limda yaxshi samara beradi. Uning ijodini o‘rganish shoir haqida kengroq tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Furqat ziddiyatli va tahlikali bir zamonda yashaganligiga qaramay, o‘zidan boy ma’naviy meros qoldirdi. Uning asarlari nafaqat o‘zbek adabiyotida, balki chet mamalakatlarda ham sevib o‘rganiladi.

Davlat ta’lim standartlarida adabiyot ta’limining maqsad va vazifalari sifatida quyidagilar ko‘rsatiladi: Umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi adabiy ta’lim asosan sof ilmiy maqsadlarni emas, balki ma’naviy-axloqiy yo‘nalishlar ustuvorligini ko‘zda tutadi.

Ular orasida eng muhimlari quyidagilar:

- o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini e’tiborga olgan holda, milliy va jahon adabiyotining eng munosib namunalari bilan tanishtirish asosida ularning qalbida vatanparvarlik, ezgulik, insonparvarlik singari yuksak insoniy fazilatlarga nisbatan rag‘bat, mehr va muhabbat uyg‘otish;

- ularni fuqarolik va vatanparvarlik ruhida, adabiyotga, milliy, madaniy-ma’rifiy qadriyatlarga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalash;

- ularning boy ma’naviy dunyosini shakllantirish;

- badiiy asar va uning poetik xususiyatlarini o‘rganish asosida o‘quvchida tanqidiy fikrlashga oid ko‘nikma va malakalarni hosil qilish;

- ulardagi mustaqil fikrlash, ijodkorlik qobiliyatlarining shakllanishi va rivoji uchun imkoniyat yaratish;

²² Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси. – Т.: Узбекистон миллий энциклопедияси, 1999-йил, 187-бет.

- ularda har qanday ma'naviy xurujlarga nisbatan sog'lom va baquvvat e'tiqodga tayanadigan immunitetni shakllantirish;

- so'z san'ati vositasida o'quvchining individual va shaxslik fazilatlarini rivojlantirish.

Bu maqsadlarga Furqat ijodini o'rganish orqali erishish mumkin.

Shoir hayoti va faoliyati haqidagi lavhalar umumta'lim maktablarining 9-sinf adabiyot darsligiga va akademik litseyning 2-bosqich o'quvchilari uchun mo'ljallangan darslikka kiritilgan. Boshqa yozuvchi va shoirlar kabi Furqat ijodiga oid vaqt ham chegaralanganligi bois darslikka shoir hayotining eng muhim jihatlari kiritilgan, xolos. Shu bois o'qituvchi boshqa manbalardan foydalanib, ko'proq ma'lumot berishi, zamonoshlarining va adabiyotshunoslarning shoir haqida bildirgan iliq fikrlaridan o'qib berishi lozim.

Adabiyotimizning tarixiy taraqqiyotida Furqat ijodi alohida bosqichni tashkil qiladi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Uning xalqni uyg'onishga, ilm-u marifatni o'rganishga va ozodlikka erishishga chorlab yozgan turli maqolalari, nasriy va lirik asarlari diqqatga sazovor. Shoirning masnaviy yo'lida yozilgan "Gimnaziya", "Ilm xosiyati", "Akt majlisi xususida" kabi she'rlari, "Qavoidi Chin va umuroti siyosiy" nasriy asari, afg'onlarning ingliz mustamlakachilariga qarshi kurashi tasvirangan maqolalari ana shunday asarlar sirasiga kiradi. Darsliklarda yuqorida nomlari keltirilgan she'rlarning yozilish sababi keltirilgan-u ular haqida ma'lumot berilmaydi. Agar o'qituvchi bu asarlar to'g'risida qisqacha bo'lsa-da fikr bildirib, tushuncha berib o'tsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shoir hayoti va ijodi yuzasidan 9-sinf adabiyot darsligida keltirilgan savol va topshiriqlar ham diqqatga sazovor. Mualliflar o'quvchilarni izlanishga, mantiqiy fikr yuritishga chorlaydigan savollarni savol-topshiriqlarni tuzishga harakat qilaganlar va bunga erishganlar. Bu jihatdan, Furqatning she'rlari yuzasidan tuzilgan savollar o'z vazifasini to'laqonli bajara oladi.

Furqat adabiyotning bir qancha turida ijod qilgan bo'lsa-da, biz uni shoir deb bilamiz, she'rlarini sevib o'qiymiz. Furqat she'riyatning g'azal, muxammas, musaddas kabi janrlarida qalam tebratgan. Uning lirikasini turli mavzudagi she'rlar tashkil qiladi. 9-sinf adabiyot darsligiga ikkita g'azali va bir musaddasi kiritilgan bo'lib, ularni o'rganishga ikki soat ajratilgan. Bu she'rlardan "Fasli navbahor o'ldi ketibon zimistonlar" misrasi bilan boshlanuvchi g'azali, "Sayding qo'yaver sayyod, sayyora ekan mendek" misrasi bilan boshlanuvchi musaddasi ijtimoiy mavzuda yozilgan. G'azal bir qarashda bahor tasviriga bag'ishlangandek tuyulsa-da, undagi ba'zi misralar she'rning ijtimoiy mavzuda ekanligini tasdiqlaydi (biz buni birinchi bobning uchinchi qismida bayon etgan edik). Bu she'rlarni o'qitishda texnik vositalardan foydalanib, darsga musiqiy variantini (qo'shig'ini) olib kelib eshittirsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Furqat lirik shoir sifatida takrorlanmas badiiy tasvirlardan foydalanadi. Jumladan, u "Surmadin ko'zlar qaro, qo'llar hinodin lolarang" misrasi bilan boshlanuvchi g'azalida o'zbek kelinchagini shunday ustamonlik bilan tasvirlaydiki, bevosita kelinchakning tashqi ko'rinishi ko'z oldingizda namoyon bo'ladi. Shu payt rassom bo'lsam-u uning tasvirini qog'ozga tushirsam, deb o'ylab qolasiz.

Xullas, badiiy adabiyot qaysi janr va mavzularda yozilmasin, undan kutilgan asosiy maqsad insonni tarbiyalashdir. Shu jihatdan qaraganda, Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqatning ham har bir asari o'ziga xos axloqiy-ta'limiy, ma'naviy ma'rifiy ahamiyatga ega. Bu asarlarning umumiy ruhi insonni komillik ruhida tarbiyalashga qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

1. Каримов И. Маънавий юксалиш йулида (тўплам) – Т: Ўзбекистон, 1998.
2. Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1999.
3. Каримов И.А. Истиқлол ва маънавият. – Т.: Ўзбекистон.1999.
4. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. 172 бет.
5. Каримов И. А. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009. 40 бет.
6. Ўзбекистон Республикаси «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури» // Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. –Т.: Шарқ, 1997.
7. Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги қонуни // Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. –Т.: Шарқ, 1997. 7 бет

II. Ilmiy-nazariy adabiyotlar:

8. Абдуғафуров А. Зокиржон Фурқат (ҳаёти ва ижоди). Тошкент: «Фан», 1977.
9. Бадриев А., Худойбердиев А. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Сам.: 2003.
10. Долимов С., Убайдуллаев Ҳ., Аҳмедов Қ. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1967. 447бет.
11. Ҳаққулов И.Ўлмас оҳанглар. Шеърят-руҳий муносабат. Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990.
12. Қаямов А. Шеърят жилолари. Тошкент: «Ўқитувчи», 1997.

13. Қосимов Б. Миллий уйғониш. Маънавият - 2004.
14. Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Т., 2010 151 бет.
15. Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Т.: 2012. 142 бет.
16. Қундузой Хусанбоева. Таҳлил – адабиётни англаш йўли.Т.: Мухаррир, 2013. 431 бет.
17. Тўхлиев Б. Maxsus фанларни ўқитиш методикаси. – Т.: 2008. 157 бет.
18. Ғуломова Н. Адабиёт дарсларида илғор педагогик технологиялардан фойдаланиш. Т.: 2003
19. То‘хлиев В., Mirsamiova R., Ametova O. Adabiyot (Majmua. Akademik litseylarning ikkinchi bosqich o‘quvchilari uchun). – Т.: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010.
20. Зоҳидов В. Фурқат. Донолар давраси. Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1973.
21. Зуннунов А. Мактабда адабиёт ўқитиш методикаси. – Т.: 2010.
22. Yo‘ldoshev Q., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. – Т.: Yangiyo‘l polygraph service, 2010. 301 bet.

III. Badiiy adabiyotlar

23. З.Фурқат «Асарлар мажмуаси». Икки жилдлик. Т., 1991.
24. Фурқат. Танланган асарлар. Тошкент: ЎзРФА нашриёти, 1958.
25. Фурқат. Танланган асарлар. 1-2-томлар. Тошкент, 1959.
26. Фурқат шеърятидан. Тошкент, 1980.

Internet saytlari:

Google.uz.

ZiyoNet.uz